

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma uquqida

X O L O V J A S U R B E K

**MUSIQIY QOBILYATI SUST RIVOJLANGAN BOLALAR BILAN
INDIVIDUAL VA MUSTAQIL ISHLASHNING ILMIY-USLUBIY,
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI.
(BOSHLANG'ICH SINFLAR MISOLIDA)**

**5A111101 – Musiqiy ta'lim bo'yicha magistr
darajasini olish uchun**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
“Musiqi o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari” kafedra mudiri
E.K.Jalilov_____

Ilmiy rahbar:
dos.:I.Qudratov_____

SAMARQAND -2013.

M

Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ilmiy-uslubiy, pedagogik-psixologik asoslari.(Boshlang'ich sinflar misolida)

REJA:

Kirish.

I.Bob: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik asoslari tahlili.

1.1. Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash pedagogik muommo sifatida.

1.2. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati.

II. Bob: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash mazmuni .

2.1. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash jarayonini tashkiliy-uslubiy va didaktik asoslari .

2.2. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning o'ziga xos texnologiyasi.

III.BOB: Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning pedagogik samaradorligi.

3.1. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash texnologiyasini ta'lim jarayoniga tadbir'i.

3.2. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash samaradorligi bo'yicha amaliy tajribalar mohiyati.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

М У Н Д А Р И Ж А

Kirish.	3-11
I.Bob: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik asoslari tahlili.	
1.1. Ta'lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash pedagogik muommo sifatida.	12-22
1.2. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ta'lim sifat va samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyati.	22-32
II. Bob: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash mazmuni .	
2.1. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash jarayonini tashkiliy-uslubiy va didaktik asoslari	33-42
2.2. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning o'ziga xos texnologiyasi.	42-53
III.BOB: Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning pedagogik samaradorligi.	
3.1. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash texnologiyasini ta'lim jarayoniga tadbig'i.	54-59
3.2. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash samaradorligi bo'yicha amaliy tajribalar mohiyati.	59-66
Umumiy xulosa va tavsiyalar	67-68
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.	69-71
Ilovalar.	
Kirish	

Mavzuning dolzarbligi . Insonning Yoshi, ma'lumoti, millati, kasbiy faoliyatidan qat'iy nazar, uning qalbida ezgu-xislar uyg'otib, kayfiyati ruhiy holatiga ohangdor, yoqimli va serjilo tovushlar vositasida badiiy obrazlar orqali badiiy emotsional ta'sir ko'rsatuvchi tarbiya vositalaridan biri- musiqa san'atidir. Shuning uchun ham davlatimiz, shaxsan Prezidentimiz I.Karimov tomonidan musiqa san'ati va musiqa tarbiyasiga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'limni modernizatsiya qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni amalgam oshirishning asosiy me'yoriy, dasturiy xujjatlari bo'lmish o'quv rejalari namunaviy fan dasturlari, yangi avlod darsliklari, o'quv uslubiy qo'llanmalar ta'lim mazmuni va darajasiga qo'yiladigan talablarni aks ettiruvchi Davlat ta'lim standartlari fan va ta'limning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin o'quv jarayoni va uni tashkil etishning moddiy texnik ta'minoti qanchalik mustahkamlanmasin, modernizatsiya qilinmasin, olinadigan pirovard natija oxir oqibat ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, dars mazmuni va sifat samaradorligini ta'minlovchi o'qituvchi – murabbiylarning kasbiy bilimi, ko'nikma malakasiga, ijodkorligiga, tashabbuskorligi, pedagogik mahorati va intellektual salohiyatiga, o'quvchilarni fan bo'yicha bilimlarni egallashiga qiziqтира olishi va eng zarur intilish qobiliyatlarini ro'yobga chiqara olish salohiyatlariga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Shu narsani ta'kidlash joizki ta'lim – tarbiyaning sifati va samaradorligini ta'minlash o'quvchi yoki talabanning o'quv mazmunini o'zlashtirishiga yo'naltirilgan o'quv jarayonining to'g'ri, mazmunli, qiziqarli tashkil etilishi, bu jarayonda o'quvchi – talabalarni darsda oddiy tinglovchi emas, mashg'ulotni faol ishtirok etuvchisi, mustaqil top[shiriqlarni bajaruvchi, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, o'z fikr mulohazalarini erkin ifoda eta oluvchi, o'z fikrlarini himoya qila oladigan faol shaxsga aylanishi muhim rol o'ynaydi.

Ko`rinib turibdiki ta`lim jarayonini bunday tashkil etish eng avvalo, bo`lg`usi o`qituvchilarni oily dargohlarda kasbga tayyorlash jarayonida inobatga olishni taqozo etadi. Shuning uchun oily ta`limda faoliyat olib boruvchi professor – o`qituvchilar o`zi dars berayotgan fan bo`yicha mashg`ulotlarni texnologiyalashtirilgan shaklda olib borishi, shogirdlarini mazkur faoliyatga tayyorlab borishilozim bo`ladi.

Pedagog olimlarning ta`kidlashlaricha inson bioijtimoiy mavjudot bo`lib, uning ijtimoiy mohiyatini bilm va tarbiyalanganlik tashkil qiladi. Barcha fanlar singari musiqiy ta`limning o`ziga xos spesifik bilimlar va tarbiyaviy ta`sirchanlik xususiyatlari borki, ularning asosiy ta`sir kuchi va natijasi kishilarni badiy yestetik tarbiyalash, ularda milliy ong, nafosat, madaniyat, tafakkurni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunda ommaviy axborotlari ko`lamini benoxoya kuchaygan, chetdan kelayotgan turli yo`nalishdagi g`oyalar, fikrlar, maslaklar buzg`unchilikka, davat etuvchi, kishilar ma`naviyatiga ta`sir etuvchi san`at bilan yog`rilgan ko`rsatuv, axborot, ma`lumot, xabar, musiqiy ohanglar yoshlar ongiga o`zining ko`proq siyosiy ta`sirini ko`rsatayotganligi ham jiddiy muammolardandir. Bu o`z navbatida birinchi galda o`sib kelayotgan yosh avlodni mana shunday yot ta`sirlardan saqlash, ularni eng avvalo o`zimizning boy va bebaho qadryatlarimizga adabiyot, sanatimiz, xalqimizning o`chmas musiqiy merosiga qiziqishlarini kuchaytirishimizni taqozo etadi. Musiqa inson ongi, ma`naviyatiga tez ta`sir etishi bilan barcha san`at turlaridan keskin farq qiladi. Musiqa san`atining badiy estetik tarbiyaviy imkoniyatlari haqida so`z yuritar ekan Prezidentimiz I.Karimov shunday ta`kidlaydi: “ agar insonning qulog`i engil elpi, tumtaroq ohanglarga o`rganib qolsa , bora-bora uning badiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma`naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hych gap emas. Ohir oqibatda bunday odam “Shashmaqom” singari milliy me`rosimizning noyob durdonalarini ham, Mosart, Bethoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham

qabul qilishi qiyin bo'ladi. musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etdi”¹

Bizga ma'lumki umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqa ta'limining poydevori qo'yiladi. Bu bosqich yoshlarni musiqa olamiga olib kirishda eng muhim va asosiy shakllantiruvchi bosqich hisoblanadi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinfdan musiqiy ta'lim tarbiyaning asosiy vazifalari o'quvchilarning umumiy musiqiy qiziqishi va qobiliyatlarini o'rganish, rivojlantirish, ularni musiqiy- nazariy savodxonligini tarkib toptirish bilan qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqani idrok etish, unga o'z munosabatini bildira olish, xalq musiqa ijodiyotiga qiziqishini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Birinchi sinfga kelgan bolalar musiqiy uquvi, madaniyati, kuylash, musiqani qabul qilishlari jihatdan turli darajada bo'lishadi.

Hozirgi vaqtda o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va ayrim fanlarga xos texnologiyalarni qo'llashga ham e'tibor kuchaymoqda. Xuddi shunday holatni musiqa mashg'ulotlarini texnologiyalashtirish tajribasida ko'rish mumkin. Bunga misol qilib ilg'or pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan “Konsert darslari”, “Viktorina darslari”, “Quvnoqlar va zukkolar darsi”, “Musiqiy sayohat”, “Men dirijyor” kabi texnologiyalarni ko'rsatish mumkin.

Darsning qaysi qismi, uning turi (ma'ruza, amaliy, seminar, musiqa darslarida esa qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodxonligi) da qo'llanishidan qat'iy nazar o'quvchilarni psixologik, fiziologik xususiyatlari, tayyorgarlik darajalari (ovoz diapozoni, kuylash imkoniyatlari, yosh xususiyatlari) hisobga olinishi lozim. Bu jarayonda asosiy e'tabor o'quvchilar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy fikrlay olish, ijrochilik malakalarini o'stirish, ehtiyoj va qiziqishlariga ko'ra ish yuritish, ularni ichki imkoniyat va iqtidorlarini ishga solish, o'z – o'zini nazorat qilish, mustaqil bilim olish ko'nikmalarini o'stirishga qaratilishi lozim.

¹ . I.Karimov . Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. –Toshkent, Ma'naviyat, 44-bet.

Bu davrda bolalar moddiy borliq go'zalliklarini his yeta olishiga, milliy madaniyat, milliy san'at, madaniyat, urf – odatlar qadryatlarni o'ziga singdirishiga va ularni qadrlashga o'rganadilar.

Boshlang'ich ta'limda o'quv tarbiyaviy ishlar mazmuni barcha predmetlar qatori musiqiy-yestetik tarbiyani ham davr talablari asosida bo'lishini taqozo etadi. O'quvchilarni musiqani idrok etish, uni tushunish, his etish, badiiy yuksak namunalar bilan mazmunan sayoz asarlarni farqlay bilish, ularga baho beraolish, qo'shiq kuylash malakalarini- tovushni sof intonasya qilish, yaxshi deksyaga ega bo'lish, vokal tovush hosil qilish, kuylashda soz va ansanbillikka erishish yaxshi egallashlariga erishish o'qituvchi oldidagi eng ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bunday oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqa o'qituvchilari, tarbiyachilar va ularni tayyorlashga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari oldiga juda kata va ma'suliyatli talablarni quyadi.

Umumta'lim maktablaridagi musiqa darslari mazmunida faqatgina musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish emas, balki, o'quvchilar ongini voqyelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madaniyatini tarkib toptirish muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinflar musiqa ta'limi va tarbiyasi negizida eng avvalo o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqishini shakllantirish zaruriy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish asosiy o'rinni egallaydi. Bu jarayon musiqa ta'limida eng nozik va jiddiy bosqich bo'lib, o'quvchilarni musiqiy eshituvi, uquvi xotirasi, diqqati va amaliy ijrochilik masalalarini sinf kesimida ma'lum darajada tenglashtirishga erishishni taqozo etadi. Bu esa musiqa o'qituvchilari oldiga ayrim musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar olib borish, o'ziga xos didaktik usullardan o'rinli foydalanish vazifasini qo'yadi.

Bizning mazkur bitiruv malakaviy ishimiz boshlang'ich sinf musiqa darslarida aynan musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan induvidial va differensial guruhlar tartibida ish olib borishning didaktik asoslarini ochib berish bilan dolzrblik kasb etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Xalqimiz madaniy ma'rifiy hayotida musiqa tarbiyasi hamma davrlarda hali muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Musiqaning ta'limiy-tarbiyaviy o'rni imkoniyatlari, u orqali insonni ma'naviy, axloqiy, estetik tarbiyalash bilan bir qatorda musiqani nazariy masalalari ham pedagog-olimlar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan.

Musiqiy asarlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarning inson ma'naviy, axloqiy, madaniy kamolotiga ta'siri, ta'lim jarayonida musiqiy asarlar bilan ishlash, o'quvchilarni musiqani tinglash, idrok qilish, undagi estetik zavq olish, qo'shiq kuylash ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida ularni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirib borish masalalari bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Bunga S.X.Fayzulina, S.K.Allamuratova, R.Qodirov, F.Xalilov, Q.Ma'mirov, M.B.Qosimovlarni ilmiy izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Musiqa san'atining estetik ta'lim-tarbiya jarayoni doirasida o'rganilishi, bu jarayonni samarali tashkil etish muommolari D.Omonullayev, R.Tursunov, A.Nazarov, D.Djamolova, I.Qudratov, Ye.MFayzullayev, M.M.Axmedovlarning dissertasion ishlarida atroflicha tadqiq etilgan.

M.Quranov, L.G.Koval, TyuTyuI X.X.Ro'zmetova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari, pedagogik va uslubiy ishlanmalarida ta'lim nazariyasining amaliy, tashkiliy jihatlari, ularni tizimlashtirish, standartlashtirish muammolari yoritilgan.

Bir qator chet el pedagog, psixolog olimlari G.G.Neygauz, B.M.Teplov, S.A.Rubenneteyn, A.Nikolayeyv, V. Shakov kabilar musiqa tarbiyasi

sohasidagi ta'lim bilan shaxsning musiqiy kamoloti, ya'ni musiqiy qobilyatlar, ularni rivojlantirishning psixologik jihatlarini tahlil qildilar, o'ta muhim hulosa va tavsiyalar ishlab chiqdilar. Shunga qaramasdan musiqa darslari jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan o'quvchilar induvidial va mustaqil ishlashni tashkil etish orqali o'quvchilarni imkoniyatlarini to'liq namoyon etishlariga sinfdagi o'quvchilarni teng darajada musiqiy-nazariy bilm, ko'nikma va masalalarni egallashlariga erishish masalasi etarli darajada o'rganilmagan. Shunga ko'ra tadqiqot mavzusi "Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ilmiy mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi"

Respublikamizning ta'lim tizimida yuz berayotgan integrasion jarayonlar barcha fanlar qatori musiqa ta'limida ham o'ziga xos yangilanishlarni yuz berishiga, ta'limga informatsion va ilg'or pedagogik texnologiyalarni kirib kelishiga, shu bilan uni sifat va samaradorligini oshirishga olib kelmoqda. Bu jarayonda musiqa ta'limini o'qitish jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ilmiy- uslubiy, pedagogic-psixologik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb muammosi sifatida respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlariga mos keladi.

Tadqiqotni davlat dasturlari va ilmiy –tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.

Tanlangan mavzu O'zbekiston Respublikasining " Ta'lim to'grisida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi, Respublikamizda ta'limni jahon standartlari darajasiga ko'tarish bo'yicha miyoriy, dasturiy hujjatlar pedagogika, psixologiyaning shaxs va uni rivojlantirish jarayoni haqidagi, shunengdek A.Navoiy nomli Samarqand davlat Universitetining ilmiy-tadqiqotlar ish rejalari doirasida amalga oshiriladi.

Tadqiqotning maqsadi. Ta'lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlashning ilmiy-uslubiy, pedagogik-psixologik asoslarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari.

1. Musiqa pedagogikasi, metodikasi va psixologiyasiga oid ilmiy, uslubiy manbalarni o'rganish;

2. Respublikamiz umumta'lim maktablarida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash holati, to'plangan tajribalar, muammolarni tahlil qilish, umumlashtirish;

3. Tajribali pedagog-olimlar, musiqa o'qituvchilar bilan suxbatlashish, anketa-so'rovlar o'tkazish;

4. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlash bo'yicha samarali ish shakl va usullarini aniqlash.

5. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan faoliyat bo'yicha tajriba-sinov ishlarini o'tkazish.

6. Ilmiy asosli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Himoyaga olib chiqishdagi holatlar:

- Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlash faoliyatini samaradorligini taminlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

- Ta'lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlashni tashkil yetish texnologiyasi;

- Musiqiy qobilyati sust qobilyati sust qobilyati sust rivojlanagan bolalar bilan ishlashga pedagogik-psixologik yondashuvlarning o'ziga xosligi;

- Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlash samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar.

Ishning ilmiy yangiligi.

1. Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash bo'yicha tajribalar o'rganildi muammolar tahlil qilindi.

2. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash faolyatini samarali tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqildi

3. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash samaradorligini ta'minlovchi.

4. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash faolyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asosli xulosa va tavsiyalar yaratildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi.

Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqiy qobilyati sust rivojlanganlik sabablari, ularni bartaraf etish yo'llari, pedagogik-psixologik hususiyatlarini aniqlash;

- musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash faolyatini samaradorligini kafolatlovchi pedagogik yondashuvlar mazmunini belgilash;

- musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ilg'orli shakl, usullari amaliyotga keng tadbiiq etilsa;

- musiqiy qobilyati sust rivojlarga bolalar bilan ishlashda maktab , oila dars va darsdan tashqari faolyatlar uyg'unligi yo'lga qo'yilsa mazkur tadqiqot maqsadi.

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni musiqa nazariyasi va metodikasiga oid yangicha pedagogik yondashuvlar bilan boyitiladi;

- musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash samaradorligini ta'minlash imkonini beruvchi hulosa va metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'grisida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident I.Karimovning ta'lim tarbiyaga oid nazariy g'oyalari, asarlari, ta'limga oid miyoriy, dasturiy hujjatlar, musiqa pedagogikasi va psixologiyasiga oid ilmiy-

uslubiy manbalar, musiqa, yestetika, san'atshunoslik sohasidagi etuk pedagog olimlarning ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy-uslubiy ishlari.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi.

-tadqiqot ishi natijalari Samarqand shaxar maktablarining musiqa o'qituvchilari pedagogik faoliytida qo'llanilmoqda.

-ishning asosiy mazmuni A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universitetining 2011, 2012, 2013yilda o'tkazilgan an'anaviy ilmiy amaliy konferensiyasida qilingan ma'ruzalarda va musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti prof o'qituvchilarining ilmiy maqolalar to'plamida (2012yil) chop etilgan.

I BOB: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik asoslari tahlili.

1.1. Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash pedagogik muammo sifatida.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashda umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori, san'atning eng ommaviy va ta'sirchan turlaridan bo'lishi musiqa san'ati muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim tizimida, ayniqsa oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagog – kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o'qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi.

Bizga ma'lumki u yoki bu xalq, millat to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'lish uchun, uning madaniy merosi, san'ati, adabiyotidan xabardor bo'lish kifoyadir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, xalqning muayyan tarixiy bosqichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy qarashlari, orzu umidlari, urf-odatlarini o'zida mujassam etgan xalq qo'shiqlari, mumtoz va maqom ashulalarini o'rganish yetarlidir. Chunki xalq musiqa san'ati umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi bilan o'zida, milliy g'oya va mafkuraning eng muhim tendensiyalarini ifoda etadi.

Shunday ekan, Respublikamizda amaliy qilinayotgan ta'limning barcha bo'g'inlarida, xususan musiqiy ta'lim-tarbiyaning eng asosiy shakllantiruvchi bo'lmish umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni milliy musiqa merosimizning eng

noyob namunalari hisoblanmish-xalq qo'shiqlari, ashulalari, kuylari va xalq mumtoz musiqasining asosi bo'lgan maqom san'ati bilan chuqur tanishtirib boorish, shu orqali ularda yuksak madaniyat va ma'naviyatni shakllantirishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozim bo'ladi. Bu maqsadni amalga oshirilishi birinchidan, ta'limni milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan yosh avlodni milliy o'zlikni teranroq his etishlariga olib keladi, uchinchidan yoshlarni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshirishga olib keladi. Bu esa umumta'lim maktablarining musiqa fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari repertuarlariga kiritilgan, kuylash va tinglash uchun tavsiya etilgan asarlar repertuarlarini qayta ko'rib chiqishni, o'zbek xalq qo'shiqlari, mumtoz musiqa haqidagi bilim va malakalarni berishga mo'ljallangan o'quv materiallarini ma'lum sinf va chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e'tiborni qaratish, nisbatan ancha murakkab ijod mahsuli bo'lgan mumtoz kuy-qo'shiqlar orqali ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni sinf va sinfdan tashqari shakllarini uzviylikda va tizimli ravishda yo'lga qo'yishini talab qiladi. O'z-o'zidan ravshanki, bu jarayonda xalq musiqa ijodiyoti, xususan mumtoz musiqa haqida beriladigan o'quv materiallari hajmini kengaytirish, mazmunan yanada boyitish, o'quv soatlari miqdorini ham ko'paytirish lozim bo'ladi.

O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta'lim-tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o'qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo'lsak, o'qituvchi avvalo o'zining so'z mahorati, cholg'u asbobida chalish, qo'shiq kuylash, turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o'quvchilar o'qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o'qituvchining shaxsiy "namunasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o'rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo'lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy - pedagogik tayyorgarlik ta`lim samaradorligini ta`minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o`qituvchilar muntazam ravishda o`zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta`lim – tarbiya samaradorligini ta`minlashda, kelajak uchun mas`ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o`rnak bo`lib xizmat qiladilar. Demak har bir ta`lim bo`g`inida shu jumladan umumta`lim maktablarida “Musika madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg`or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag`batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Innovatsion faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish munosabati bilan ta`lim jarayoniga ilg`or pedagogik texnologiyalarni kiritishda eng muhimi o`quvchilarni ushbu faoliyatga tayyorgarligi va qiziqishlarini inobatga olish va kerakli texnologiyani tanlash hisoblanadi.

Zero, musika inson his- tuyg`ularini, orzu-istaklarini, kechinmalarini o`ziga xos musiqiy ohanglarda (musiqiy tilda) ifoda etadi va inson ruhiyatiga, hissiyotiga faol, emotsional ta`sir yetadi. Musika darslari mazmunida olib boriladigan ta`limiy tarbiyaviy ishlar yesa o`quvchilarning yestetik va ahloqiy tarbiyasiga ijobiy ta`sir ko`rsatishi ularda go`zallikka bo`lgan his tuyg`ularini rivojlantirish, shu tariqa musiqiy-badiy dunyoqarashini shakllanishiga asosiy omil poydevor bo`lib xizmat qiladi.

“Musika insonning ahloqiy jihatlariga ta`sir ko`rsata olish layoqatiga qodir. Madomiki shunday ekan, u kishilarni tarbiyalash vositalari qatoriga kiritilmog`i lozim” deb yozgan edi Arestotel. Ushbu fikrni mantiqiy davomi sifatida “Musiqiy tarbiya-bu musiqachi tarbiyasi emas , avvalambor inson tarbiyasidir”- degan edi mashhur pedagog V.A.Suxomlinskiy. Shunday yekan o`sisib kelayotgan yosh avlodni ilk bolalik davridanoq biz ularni musiqani tushunish, his etish, musika madaniyati asoslarini egallashlari uchun etarli shart-sharoit yaratib bermog`imiz, ularda musiqiy eshitish qobilyati, musiqiy

tafakkur, musiqiy did, musiqiy dunyoqarashlarini shakllantirish va shu orqali ma'naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak.

O'quvchilarni san'atning sehrli olamiga olib kirish, ularda musiqa san'atiga ongli munosabatni shakllantirish, musiqani tinglash, qo'shiq kuylash qobiliyatlarini o'stirish bu murakkab pedagogik jarayonda o'quvchilardan yuksak kasbiy va pedagogik mahoratini talab qiladi.

Musiqa tinglash va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan maqsad va vazifalarni muvofaqiyati uni boshlang'ich sinflarda qay darajada uyushtirilganlik va tashkil etilganligiga bog'liqdir. Chunki, bu bosqichda musiqiy talimning poydevori qo'yiladi. Bu jarayonda ayniqsa, o'qituvchining musiqa o'qitish metodikasidan tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni musiqa tinglashga, qo'shiq kuylashga, musiqa savodi bo'yicha eng muhim qonun-qoidalarni o'zlashtirishlariga e'tibor bermog'i lozim. O'qituvchi har bir darsning va darsda qo'llaniladigan faoliyatlarni ruhda qiziqish va ishtiyoq bilan qabul qilinishiga erishishi zarur. Buning uchun u kichik yoshdagi (I-IV-sinf) o'quvchilarni psixologik, fizologik xususiyatlarini va induvidial qiziqishi, qobilyat va imkoniyatlarini yaxshi bilishi talab etiladi. Bolalarni qiziqishi, diqqati va o'yinga moyillik kabi hususiyatlariga ko'ra faoliyat turlarini tez-tez almashtirib turish, darsda o'yin, raqs, ritmik jo'r bo'lish, rebus, viktorina, konsert, bolalar cholg'u asboblarda ijro etish kabi turlardan unumli foydalanmog'i lozim.

Shu bois musiqa o'qituvchisi boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini qiziqarli va samarali kechishiga qanchalik darajada erishaolsa bu o'quvchilarni musiqiy tafakkuri, dunyoqarashi va madaniyatini samarali tarzda shakllanishiga olib keladi. Shu o'rinda mazkur faoliyatlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. Musiqa tinglash faoliyatida o'quvchilarda musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash, va musiqiy madaniyat shakllanadi. Bu faoliyatda o'quvchilar musiqa tinglar ekanlar bevosita uni idrok eta boshlaydilar, ya'ni musiqani xarakteri, uchun ifodalangan obrazlarni his eta boradilar. Bu yesa

ularning musiqiy idroklarini o'sishiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tinglash, musiqa darslarining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki o'quvchilarni musiqiy madaniyati, dunyoqarashini shakllantirish asosan ushbu faoliyat mazmunida amalga oshiriladi. Qolaversa tinglash barcha faoliyatlarda ham ishtirok etadi.

2. Qo'shiq kuylash faoliyatida amaliy ijrochilik, vokal-xor malakalari, qobilyatlari rivojlanadi. Bu faoliyatda ular musiqani emotsional ta'siri bilan birga qo'shiqlar matnida ifodalangan yuksak g'oyaviy-badiiy mazmundan estetik zavq oladilar, musiqiy asarga ta'lluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirib boradilar. Bu jarayonda o'quvchilarni musiqiy dunyoqarashi va didi shakllanadi.

3. Musiqa savodi faoliyatida o'quvchilar musiqani yaratilish tarixi, uni kim yaratadi, kim tinglaydi, kim ijro etadi, kuy nima, shunengdek, musiqani ifoda vositalari-ritm, metr, temp, registr, o'lchov, lad, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi musiqa ijodkorlari musiqiy tafakkurni shakllantiradi. Musiqa madaniyati darslarida bolalar asboblardan foydalanishi yaxshi natijalar berish bilan birga o'quvchilarni darsga intiluvchanligini, qiziqishini, musiqiy qobilyatini rivojlantiradi. Musiqa darslarida qo'llanadigan bolalar cholg'u asboblari ikki turga bo'linadi.

1. Kuychan cholg'ular.

2. Kuychan bo'lmagan cholg'u asboblari.

Kuychan cholg'u asboblarga metallafon va kselofon kiradi. Kuychan bo'lmagan cholg'u asboblarga doira, oddiy cho'p qoshiqlar, kichik shaqldoqlar, barabanchalar kiradi. Bolalar cholg'u asboblarda jo'r bo'lishi turli metodlar yordamida amalga oshiriladi:

Avval bolalar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo'r bo'lish;

1. Musiqaga aniq ritmik jo'r bo'lishni aniq bajarganlar, cholg'u asboblarda jo'r bo'ladilar.

2. Asta sekinlik bilan, qobilyati sust rivojlangan bolalar ham to'g'ri ijro yetishga intilib jo'r bo'lish yo'nalishlarini ham qilib boradilar.

3. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish har gal har-hil cholg'u asboblarida bajariladi.

4. Sinf 2guruhga bo'linadi. 1-guruh chapak va cholg'u sozlarida, 2-guruh esa ovozda usul berish bilan amalga oshiriladi.

5. Bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish grafik sxema, chizish, tasvirli ritmik tuzulishlarga qarab chalish ham o'quvchilar ijodkorligini faollashtiradi, musiqiy qobilyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o'quvchilarni ritmik his qilish bilan jismoniy rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ovoz apparatlari nozik, diqqat e'tiborlari turg'un bo'lmagan, serharakat, o'yinga moyil, xotirasi, to'liq rivojlanmaganligi sababli musiqa darslarida faoliyat turlari tez-tez almashinib turishini taqozo etadi. Musiqaga mos raqs, o'yinli harakatlarini bajarish, o'quvchilarning diqqatini jamlashda, xotiralarini mustahkamlashda yaxshi samara beradi. Dars davomida qo'ydagi harakat turlarida foydalanish tavsiya etiladi:

-marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raqs elementlarini bajarish;

-musiqali o'yinlar o'tkazish;

-musiqaning xarakterga mos, turli qo'l va tana harakatlarini bajarish.

Ma'lumki, milliy musiqa madaniyatimizda raqs muhim o'rin tutadi va har bir bola qiziqadi. Raqs harakatlari musiqa darsida o'quvchilar faollashuvini oshiradi. Yeng muhimi shundaki, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy qobilyati ritm tuyg'usi shakllanadi. Har bir harakat turini o'qituvchi oldindan belgilaydi va o'zi aniq go'zal va ifodali qilib ko'rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin unga doir musiqani mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so'ngra harakatlar bajarish yaxshi natija beradi.

Bolalar musiqali o'yinarga ham judaqiziqadilar. Dars jarayonida bajarilgan har bir harakat turi o'quvchilarni hotirasini mustahkamlaydi, nutqini o'stiradi, jismoniy sog'lom bo'lishiga ko'maklashadi, diqqatini faol ushlab turishga yordam beradi. Musiqachi mos harakatlar bajarishni darsning har bir

faoliyat turida qo'llash mumkin. Bundan maqsad o'quvchilarni musiqaga qiziqishlarini kuchaytirish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish dars faoliyatlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashdan iboratdir. Bu o'rinda musiqa o'qituvchisi o'quvchilar qiziqishi va qobiliyatlarini muntazam kuzatib borish faoliyatlarini mavzusi va maqsadidan kelid chiqib qo'llash yaxshi natijalarga olib keladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki musiqa ta'limi jarayonida qanday tarzda tashkil qilinmasin barcha o'quvchilarni egallash lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni birdek egallay olishiga erishish o'ta muhim muammoli masala bo'lib qoladi. Chunki har bir o'quvchining psixologik imkoniyati Imkoniyat, musiqiy uquvi, qobiliyatlari bu o'rinda muhim ahamiyat kasb etadi, yani, ayrim o'quvchilar musiqiy rivojlanishining yuqori bosqichlariga ko'tarilsa, ayrimlari esa ma'lum muvofaqiyatga erishadilar. Shunday ekan musiqa darslarida o'quvchilar musiqaga shunchaki ko'ngilochar vaqtni xushchaqchaq o'tkazish vositasi sifatida emas, balki o'z ma'naviyati va madniyati ichki ruhiyatini boyituvchi vosita sifatida qarashlariga erishish muhimdir, toki bu musiqaga bo'lgan ehtiyojga aylansin. O'quvchilarni ehtiyojlari, qiziqishlari, his-tuyg'ulari emotsyalari, didini, musiqiy-estetik tafakkurlarini shakllantirish orqaligina biz ularda to'la ma'nodagi musiqa madaniyatini rivojlantirishimiz mumkin.

Umumiy ta'lim manbalaridagi musiqa musiqaga o'qitishning amaliy maqsadi o'quvchilarni g'oyaviy hissiy va ahloqiy estetik tarbiyalash, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirish orqali umumiy madaniyatning yuksalishiga ta'sir ko'rsatishidan va shaxsni ma'naviy shakllantirishdan iboratdir. Buning uchun esa eng avvalo o'quvchilarda musiqani idrok etish, musiqiy tafakkurni his etish, unga munosabat bildira olishi, baholay olishi, musiqani eshitish, eslab qolish hamda amaliy ijrochilik qobiliyatlarini muntazam rivojlanishiga erishish lozim bo'ladi.

Kundalik hayotimizda biz ko'pincha har-hil fikrlarni eshitishimizga to'g'ri keladi: "Hamma ham musiqa bilan shug'ullana olmaydi", "musiqani

yaxshi egallash, o'rganish, o'zlashtirish va yaxshi muvofaqiyati erishish uchun alohida qobiliyat, iste'dod bo'lishi kerak “ uning musiqiy qobiliyati yo'q “Musiqqa bilan shug'ullangandan ko'ra boshqa mashg'ulot bilan shug'ullangani ma'qul”. Albatta bunday fikrlarni ma'qullab bo'lmaydi .

Birinchidan, umumta'lim maktablari musiqqa ta'lim va tarbiyasining bosh maqsadi bu musiqachi (cholg'uchi , xonanda, musiqqa nazariyasi va hokazo) tayorlashni ko'zda tutmaydi.

Ikkinchidan, musiqqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida o'quvchilarni musiqani idrok etish, musiqiy eshituvi, xotira, diqqati, musiqiy-badiiy didi, vokal-xor malakalarini rivojlantirmay ham ularda to'la ma'nodagi musiqqa madniyatini tarkib toptirish mumkin bo'lmaydi. Agar shunday bo'lmaganda faqatgina musiqiy qobiliyati bo'lganlar musiqqa bilan shug'ullanishiga haqli, musiqiy qobiliyati bo'lmagan (aslida qobiliyat hammada bo'ladi, lekin, turli darjada bo'ladi) lar bilan shug'ullanish befoyda degan hulosa qilib chiqqan bo'lar edi.

Tabiatdan berilgan nasliy qobiliyatni inkor etmagan holda shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir jismonan sog'lom bolada musiqiy qobiliyatlar – musiqiy idrok, musiqiy xotira, diqqat, sezgi, sulh, musiqiy didni shakllantirish mumkin. Bu jarayonda bolaning nasliy qobiliyati emas balki to'g'ri yo'naltirilgan ta'lim tarbiya, mashg'ulotlarni pedagogik, psixologik, metodik tomondan to'g'ri tizimli, izchillikka asoslangan holda yo'lga qo'yilganligi, o'qituvchining kasbiy mahorati, qo'llaydiga ish usullari, vositalari muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik va psixologik tajribalardan ma'lumki bir xil sharoitda, masalan musiqqa darslarida bir sinfda, bir o'qituvchida ta'lim tarbiya olgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi tabiiy ravishda har hil bo'ladi. Shuning uchun insonning xarakteri, qiziqishlari va zarur ko'nikma, malaka va bilimlarni o'zlashtirish jarayoni juda murakkab hisoblanadi. Pedagogika fani shu bois ham har bir fan o'qituvchisidan, shu jumladan, musiqqa o'qituvchisidan har bir o'quvchining induvidial, psixologik-fizologik hususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni o'tishni alohida uqtiradi.

O'quvchilarda musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish uchun avvalambor ularda musiqiy eshitish qobiliyatini shakllantirish kerak. Darsda belgilangan pedagogik maqsadlar musiqani idrok etish, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o'quvchilarda musiqiy bilish, ko'nikma va malakalarini demakim musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni samarali kechadi.

Shuni unutmash kerakki, musiqa o'qituvchisining faoliyati faqat musiqa darslarini o'tish bilan cheklanmaydi. U o'z faoliyatini muvofiqiyatli amalgam oshirish uchun bola psixologiyasini, induvidial xususiyatlari, imkoniyatlarini alohida e'tiborda tutib, shunga muvofiq darsda amalga oshiradigan vazifalarni belgilab borish lozim bo'ladi. Bu o'rinda quydagi jihatlarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Darsda amalga oshiriladigan pedagogic vazifalarni to'g'ri belgilash(faoliyatlar bo'yicha);
2. Darsni tashkiliy jihatdan mamunli bo'lishiga erishish;
3. Ta'lim tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan muloqoti;
4. O'quv materiallarini o'quvchilar bilm va malakalariga mosligi;
5. O'quvchini bayon qilishi, ko'rsatib berishi, umumlashtirish, namoyish qilish, o'quvchilar hatti- harakati, muosabati, berilgan topshiriqlarni bajarishi, javob berishi, amaliy ijrosini kuzatib , to'g'ri baholab, rag'batlantirib boorish,
6. Har bir o'quvchidagi o'zgarishni ko'ra bilishi musiqiy qobiliyati yaxshi va sust rivojlangan bolalarni umumiy va mahsus musiqiy kamol toptirish vazifalarini belgilash va izchil amalgam oshira borish;
7. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari, qiziqishlari ijrochilik ko'nikma va malakalarini rivojlanish dinamikasini o'rganib borish;
8. O'qitishni ilg'or va samarali usullarinni o'rganish, amalda qo'llash; ilg'or tajribalarni sinab ko'rish, ommalashtirish;
9. Muntazam ravishda pedagogic kuzatishlar va tajribalar o'tkazib borish.

Bundan ko'rinadiki, musiqa o'qituvchisining bilm va malakalari strukturasi ijtimoiy-siyosiy psixologik – pedagogik va mahsus bilm va malakalari tashkil etadi.

Psixologik- pedagogik bilimlar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi (nazariy va amaliy bilimlar) uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqa o'qituvchisi musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini, bola va o'smir shaxsining tipologik hamda yosh hususiyatlarini, ijodiy-musiqiy o'ziga xosligining rivojlanishi qonuniyatlarini va ana shu rivojlanishning eng samarali amalga oshadigan pedagogik shart sharoitlari imkoniyatlari va ularni yuzaga chiqara olishlarini yaxshi bilish zarur. Afsuski bizning pedagogik kuzatuvlarimiz bu borada ishlar ko'ngildagidek emasligini aksariyat musiqa o'qituvchilari o'z faoliyatlarida o'quvchilarni yosh, fizologik, psixologik hususiyatlari amaliy ijrochilik qobiliyatlari, ovoz imkoniyatlarini hisobga olmasdan “o'z bilganicha” ish tutayotganliklarini, bu esa ularni maktab faoliyatiga tayyorlash davrida zarur psixologik bilimlarni puxta egallaganliklarini ko'rsatdi. Shu bois ham biz o'zimizning dissertasion tadqiqotimiz mavzusini “Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ilmiy-uslubiy, pedagogik- psixologik asoslari” deb nomladek

Musiqa pedagogikasi bo'yicha respublikamizda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda ham bu mavzu alohida o'rganilmaganligi ham umumta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash dolzarb pedagogik muammo bo'lib turganligini korsatadi.

Har bir kasb o'ziga xos muhim sifatlariga ega bo'lishni talab etadi. Mana shu sifatlarni belgilash-o'quvchilarni o'zlashtirish va provard natijada qobiliyat va iqtidorlarni shakllantirishning muayyan vazifalarini amalga oshirilishiga ijobiy ta'sir etadi.

Musiqa o'qituvchisining murakkab kasbi qandaydir bir necha musiqa ixtisosliklarini o'z ichiga oladi. Lekin shunchaki ularning yigindisidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularni

musiqa pedagogikasi bilan birga musiqa musiqa psixologiyasidan chuqur bilm olishlariga, turli darslarda qobilyatlari rivojlangan bolalar bilan ishlash ko'nikma va malakalariga ega kadrlar qilib tarbiyalash zarur. Bu faoliyatni tashkil etish qonuniyatlarini ishlab chiqish musiqiy qobilyatlari sust rivojlangan bolalar bilan induvidial, mustaqil va mahsus ish olib borish tizimining ilmiy asosli omillarini ishlab chiqish zarur. Biz mazkur tadqiqotimizni ana shu maqsad va vazifalardan ishlab s'hiqib olib borishga, zarur ilmiy hulosalar, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qildik.

1.2. Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Psixologiya fanidan ma'lumki, voqyelik ta'siri ostida paydo bo'ladigan sezgi va idrok hissiyotining asosiy manbaidir. Bolalarda bosh miya va sezgi a'zolarining taraqqiyoti etarli darajada rivojlanmaganligi tufayli ularda sezuvchanlik bir muncha ta'sirli bo'ladi.

Musiqiy asarni tinglash orqali uni to'g'ri idrok etish, lad tonalligini farqlash, xarakteri, mazmuni, janri, shakli, ifoda vositalarini, badiiy va nazariy taxlil qilish ham o'quvchilarni musiqiy-nazariy, ya'ni nota savodxonligini tarkib toptirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham musiqa savodi xususan nota o'qish malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bilimlarni o'quvchilarga o'rgatib borish va shu asosda ularni musiqa nazariyasi va amaliyotidan savodli qilib tarbiyalash vazifalarini xal etishga yo'naltirish yaxshi samara beradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni badiiy estetik tarbiyalash, ularda "musiqiy madaniyat"ni talab darajasida shakllantirish murakkab va mashaqqatli pedagogik jarayonni talab qiluvchi yo'ldir. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishlari, musiqiy didi, qobiliyati, kuylashi, raqsga tushishi, retmni his qilish, eslab qolish, tinglash, idrok etish kabi imkoniyatlari saviyalari har xil bo'lganligidan ularni bir maqsad mavzu yo'nalishida birlashtirish, berilayotgan bilim tushunchalarni mazmuni, mohiyatini anglash, his etish, kuylash, raqs tushish kabi amaliy harakatlarni

bajarishga o'rgatish o'qituvchilardan, katta mehnat, sabr-bardosh, kasbiy mahorat va psixologik yondoshuvlarni talab etadi. Shunday bir ilmiy-hayotiy haqiqatni ta'kidlab qo'yish joizki hozirgi ko'pchilik o'quvchi-yoshlar orasida keng tarqalgan yengil-yelpi, jaz, pop, rep. o'zbek estradasidan boshqa san'at turlariga umuman loqaydlik beparvolik, musiqiy-estetik tarbiyaning yo'lga qo'yilmaganligi, ta'limning boshlang'ich bo'g'inlarida musiqiy ta'lim-tarbiya ishlarida jiddiy kamchiliklar borligidan dalolatdir.

Bu faoliyat turini birinchi sinfdan, dastlabki darslardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Musiqa savodi, ya'ni nazariyatga oid bilim va tushunchalar juda murakkab kechadi. Xarf o'rganayotgan bolalarga nota yozuvi va turli ifodaviy belgilar qoidalarni o'rgatish va o'quvchilar tomonidan ularni o'zlashtirilishi juda ham jiddiy psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida ish tutishni talab qiladi. Birinchi sinfning 1-2 –choraklari dastlabki, tayyorlov bosqichi xisoblanib, ayni bu davrda o'quvchilarda badiiy faoliyat asarining barcha turlarini shakllantirish bilan bog'liq o'quv – dars mashg'ulotlari boshlanadi. Musiqani ta'la-to'kis idrok etish uchun diqqat xotira va musiqiy tafakkur zarur va muhimdir. Ana shundagina insonning tasavvuri yordamga keladi va estetik hissiyot shakllanadi. Ko'rinib turibdiki, inson tafakkurining faoliyati xil-xil faktorlarga bog'liq. Musiqa va musiqiy- nazariy bilimlarni o'zlashtirish uchun o'quvchilarning asarni tinglash uning nazariy qoidalarini aytib berish, qo'shiqni yaxshi eslab qolish, kuylash, musiqiy bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish orqali ularda shaxsga xos bo'lgan hususiyatlarni, ijodiy qobiliyat, erkin yo'naltirilgan diqqat, musiqiy xotira, tasavvur faoliyatini, tashabbuskorlikni shakllantirishdir.

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni diffirensiyal guruh bo'lib, ish tutishi yaxshi natija beradi. Bunda musiqiy qobiliyati, diqqati, xotirasi, serob o'quvchilar oldingi qarotlarga, musiqani yaxshi eshitadigan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan bolalarga orqa qatorlarga joylashtirishi lozim. Ayrim xollarda “bo'sh” o'quvchilarni “kuchli”, “qobiliyatli” bolalar yoniga ham o'tqazish ham samarali usullardan xisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda musiqa nazariyasiga oid bilim

tushunchalar o'quvchilarni ma'lum kuy yoki qo'shiqni tinglash va kuylash, raqs va ritmik xarakatlarni bajarish jarayoni bilan uzviy bog'liq ravishda tushuntirib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarga tushintiriladigan nazariy mavzular xech qachon bir darsni qamrab olmasligi kerak. Chunki, o'quvchilar diqqati xotirasi ularni qabul qilishga xali tayyor emas. Olaylik birinchi sinfda dastlab bolalarning tovushlarini yo'g'on (past), ingichka (baland), uzun, qisqa, tembr (tus) va kuchni farqlashga o'rgatishga asosiy e'tibor qaratiladi. O'yin shaklida beriladigan bir qator topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar musiqa tovushlarini tinglash, qiyoslash, farqlash, ularni yozilishi, mashq qilish, ularni kuylash, xarakatli raqs elementlarini bajarish, qarsak (chapak) chalish, shiqildoq, qoshiq, doiracha singari musiqa asboblari chalishadi.

Baland va past tovushlar xaqidagi tushunchalar orqali tovushlarning bir-biridan farqi, turli xayvonlar yoki musiqa asboblari misolida tushuntiriladi.

Do-major (o'n qatorni) tushuntirishda tovushlar ketma-ketligi zinapoyachalar ifodasidagi tasvir orqali berilganda bolalar ularni osongina farqlaydilar va yodida olib qoladilar.

Birinchi sinfda o'quvchilarning musiqa nazariyasiga oid bilimlari nisbiy bo'lib, ikkinchi sinflarda aniq (absolyut) tushunchalarga aylanadi. Shuningdek, birinchi olingan bilimlar asosan notaga bo'lgan davr sifatida nomoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda nota savodxonligini o'rgatishga qo'yiladigan asosiy talab- dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda – qo'shiq aytish, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishlariga erishishdir.

Darsda xar bir faoliyat bilan shug'ullanganda o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglashayotgan asarlarning kim tomonidan yaratilganligi, qaysi ladda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi, ritmi, shakli, dinamik belgilari, va xokozolarni qisman bo'lsa ham aniqlashlari ularni ichdan o'qish malakalariga ega bo'lishlari lozim. Mana shu jarayonda musiqiy- nazariy bilimlar muhim o'rinlar tutadi.

Musiqiy-nazariy bilimlar to'g'ri yo'lga qo'yilmagan sayoz va bir tizimga solinmagan bo'lsa ham o'qituvchi imkoni boricha darslarni ko'rgazmali qurollarda, zamonaviy texnik vositalardan foydalangan xolda dars o'tishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqi darslarida o'quvchilarning musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va uni samaradorligi ta'lim olib borilgan jihat, pedagogik shart-sharoit, darslarni pedagogik, metodik tomondan uyushtirilishi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati, uning imkoniyatlari va boshqa komponentlarga (texnik, ko'rgazmali vositalar, o'quv-metodik manbalar) bog'liq. Shu tufayli musiqi darslarida o'quvchilarni musiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyatini quyidagi masalalarni hal qilish lozimligini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kirib kelishi nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazishda an'anaviy usullar bilan birgalikda ulardan o'z o'rnida va unumli foydalanish, faqatgina tushuntirish, ko'rsatib berish bilan chegaralanib qolmay nota yozuvi bilan bog'liq bilimlarni (musiqaning ifoda vositalari) ifodaviylik hususiyatlari, musiqiy til-melodiya(kuy), ritm, temp, dinamik tuslar, intervallar, o'lchov, tonallik, ton, yarim ton, engarmonizm, reprizalar, pauzalar, gammalar, akkordlar, ularning aylanmalari, dirijyorlik qoidalarini, registr va xakozolar, forma hosil qiluvchi elementlari malakalarini shakllantirib borishga diqqatni qaratish lozim.

Musiqi savodi faoliyatida muhim nazariy tushunchalar, qonun – qoidalarini turli shaklda ifodalash imkoniyatlarini xisobga olib, ularni mantiqiy ketma-ketlikda amaliyot bilan bog'lab, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mana shu jarayonda ko'p narsa o'qituvchining har bir o'quvchiga induvidial va mustaqil yondashuviga bo'g'liqdir. Bu ishda ijobiy natijaga erishish uchun u o'quvchining shaxsini yaxshi o'rganib borish, doimo kuzatib, mashg'ulotlar paytidagi hatti harakatlarini (zarur tushunchalarni eslab qolish, idrok yetish, ovozni tonga tushib kuylash) tahlil qilish zarur. Darsni

ta'lim tarbiya jarayonining asosiy bo'gini deb bilib sinfdan tashqari mashg'ulotlarning muhimligini, bu faoliyatda o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishni unutmasligi lozim.

Musiqqa bilan shug'ullanish, musiqiy ta'lim jarayonida musiqiy nazariy bilimlarni o'zlashtirish va muayyan natijaga erishish insondan umumiy va mahsus qobiliyatlarning ma'lum bir majmuini (uyg'unligini) talab qiladi. Qobiliyat deganda insonni biror ijtimoiy foydali faoliyat turini muvofaqiyatli bajarishga layoqatini ifodalaydigan hususiyatlari tushuniladi.

Pedagogika fanida qobiliyat tushunchasiga insonni kamol toptirish uning qobiliyatlarini rivojlantirishdir degan metodologik qoidaga amal qilgan holda ta'rif beriladi. Qobiliyat musiqiy faoliyat uchun eng muhim bo'lgan hususiyatlardir. Chunki, endigina birinchi sinfga kelgan o'quvchilarni tabiatini musiqiy eshituvi, qiziqishi, xotirasi, diqqati, ovoz imkoniyatlari, eng muhimi-qobiliyatlari turli darajada bo'ladi. Musiqqa darslarining eng asosiy faoliyatlaridagi pedagogik jarayon o'quvchilarni yaxlit qamrab olish, ularni amaliy ijrochilik layoqatlarini uyg'unlikda ma'lum bir barqaror tenglik darajasida shakllantirishni taqozo etadi. Bu ayniqsa qo'shiq kuylash faoliyatida yorqin namoyon bo'ladi. Kuylashda sof unisonga erishish, sozlanish, jo'rnavozlik qilish, ansanbillikka erishish, turli murakkablikdagi asarlarni butun sinf jamoasini "bir butun organizm" tarzida ijro yetishlariga erishish, o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini maksimal darajada yaqinlashtirish vazifasini ko'ndalang qo'yadi. Musiqiy qobiliyati yaxshi rivojlanmagan bolalarni musiqiy o'quvi "sust" bo'ladi. Bu esa musiqiy eshituvi ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirish uchun yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish uchun mumkin bo'lgan pedagogik faoliyatni tashkil etish lozim. Mashhur pedagog va psixologlar qobiliyatga inson shaxsining o'ziga xos hususiyati sifatida baho berishadi va uni ma'lum faoliyatlar bilan bog'liq xolda qaraydilar hamda tegishli faoliyatsiz umuman qobiliyat bo'lmasligi yoki

rivojlanishligi mumkin deb hisoblaydilar. Bu holni musiqa yo'nalishida ham yaqqol ko'rish mumkin. Ayrim o'quvchilarni musiqiy iqtidorlariga baho berganimizda (masiqiy uquvi-eshitish, xotirasi, ijrochilik mahorati, o'z ta'surotlarini ifodali qilib so'zlab berishi va hokazolar) "qobilyatli" degan iborani qo'llaymiz. Qobilyatlilik va qobilyasizlik esa bola shaxsi shakllanishining juda ko'p psixologik va fizologik omillariga bog'liqdir. Bunda irsiyat, oila muhiti, bola ulg'aygan muhit, ijtimoiy sharoitlar muhim o'rin tutadi. Inson umuman olganda butkul "qobilyasiz" bo'lishi mumkin emas. Har bir shaxs u yoki bu darajada qobiyatga ega bo'ladi. Bu sifat har bir shaxsda turli darajada zohir bo'ladi. O'z qobilyatini yaxshi namoyon eta olmaslik ham insonning psixologik holatini natijasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin (hayajonlanish, dovdirab qolish, o'ziga ishonmaslik kabi holatlar). Bunday vaziyatlarda o'quvchi pedagog bola shaxsini yashirin qobilyatini yuzaga chiqarishga harakat qilmog'i lozim bo'ladi. Shaxsning yashirin qobilyatlariga uning o'ziga xos hususiyatlari sifatida qaralganda bu hususiyatlar uning yanada kamol topishiga, ya'ni musiqiy qobilyatni rivojlanishiga asos bo'ladi.

Musiqa ma'lumotlari bola shaxsining psixik faoliyati namoyon bo'lishining o'ziga xos shakllaridan biri yekanligi sababli musiqa pedagogikasi umumiy pedagogika hamda fizologiya fanlarining ilmiy yutuqlari va hulosalariga tayangan holda ish tutmog'ini ma'qul topadi.

Ta'lim bilan rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik murakkab bo'lib, o'quvchilar ma'lum bir faoliyatdagi (musiqiy) kerakli malaka, ko'nikmalarini u yoki bu elementlarini o'zlashtirishi ularni qobilyatlari darajasini darrov oshirib qolmaydi qobilyatlarni rivojlanishi o'qituvchining ta'lim jarayonini qanday boshqarishi, tashkil etishga, bog'liq bo'ladi qolaversa har bir bolani induvidial qobilyatlarni rivojlantira olmaydigan hatto, ularni rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan saviyadagi darslar olib boriladi. Bu ko'pincha musiqa pedagogikasi va metodikasidan etarli bilm va malakaga, tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilarda kuzatiladi. Ta'lim jarayonida bolani musiqiy qobilyatlarini o'sishiga yordam

bergani ish shakllari usul va vositalarni tanlash, ularni mahorat bilan qo'llash uchun bola shaxsining induvidial hususiyatlarini yaxshi o'rganish, bilish kerak.

Ma'lumki, musiqiy qobilyatlar barvaqt, ko'pincha bolalar musiqa bilan maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishni boshlash yoshi ancha ilgari yuzaga keladi. Shunga asos bolalarni musiqa bilan shug'ullanish jarayonida "qobilyatli" va "qobilyasiz" deb farqlanadi. Lekin, ayrim olimlarning tadqiqotlari va tajriba ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim jarayonida insonda bo'lmagan qobilyatlarni ham rivojlantirish mumkin ekanligi dalillangan. Shunga ko'ra biz har bir bola musiqa bilan shug'ullanish lozim, binobarin musiqiy qobilyatni faqat musiqa ma'lumotlarining maqsadga muvofiq va izchil tizimli orqali shakllantirish va rivojlantirish mumkin deb hisoblashga haqlimiz.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich musiqa darslarida ayrim musiqiy uquvi, yani "qobilyati" sust o'quvchilarni musiqiy qobilyatini rivojlantirish uchun ularni avvalo yaxshi o'rganish lozim. Bu bolada ko'pincha qo'shiq kuylash, bolalar cholg'u asboblarida chalish, musiqaga ritmik jo'r bo'lish, musiqaga mos harakatlar boshqarish jarayonida namoyon bo'ladi.

Musiqiy qobilyatlar muammosini tahlil qilishda avvalo, ular o'zaro bog'liq bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydigan sifatlarni keng majmuasidan iboratligini aytish lozim. Musiqiy qobilyatlarga musiqani anglash, musiqani tinglay olish, muayyan badiiy mazmuni ko'z oldiga keltirish, kuylashda tovushni aniq intonasya qilish, ritmni his qilish va mahsus ijrochilik bilan bog'liq hususiyatlar kiradi. Bu hususiyatlarni birortani ta'lim jarayonida "passiv" namoyon bo'lar yekan, bu bolani o'z qobilyatini yaxshi namoyon qilolmasligi yoki shu yo'nalishida "qobilyati" rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Shunday hollarda musiqa qobilyatlarini yaxshi o'rganib borish ularda o'zgarishlarni mahsus daftarga qayd etib borish lozim bo'ladi. Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa tinglashga qo'shiq kuylashga, ritmik va raqs harakatlarini bajarish, musiqiy cholg'u asboblarida chalishga orgatishda ularni musiqiy qobilyatlari kuzatiladi. Shunga ko'ra bolalar bilan induvidial yoki

ularni turli darajadagi guruhlarga bo'lib ish olib borish samarali ish shakllaridan hisoblanadi.

Tabiatan berilgan nasliy qobilyatni inkor etmagan holda shuni aytish lozimki har bir jismonan sog'lom bolada musiqiy idrok, musiqiy eshitish, ijrochilik qobilyatini shakllantirish mumkin. Bu jarayonda bolaning nasliy yoki ta'biy qobilyati emas, o'qituvchining kasbiy mahorati, darsda qo'llaydigan metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta yuqorida aytilganidek bir hil sharoitda, masalan musiqa darslarida bir sinfda, bir o'qituvchida ta'lim tarbiya olayotgan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi har-hil bo'ladi. Shuning uchun insonning xarakteri, psixologik, fizologik imkoniyatlari, qiziqishlarining shakllanish jarayoni juda murakkabdir. Pedagogika fani shu tufayli musiqa o'qituvchilaridan har bir o'quvchining induvidial hususiyatlarini, musiqiy eshituvi, xotirasi, amaliy ijrochilik hususiyatlarini o'rganib borish, har bir darsda ularni hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etishni talab qiladi.

Bu musiqa darslarida alohida e'tiborga molik, chunki, musiqa mashg'ulotlarining sifat darajasi o'quvchilarni jamoaviy ijrochilik jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Musiqiy qobilyat o'quvchi yoshlarning ko'proq musiqiy eshituvini rivojlanganligi bilan izohlanadi. Chunki musiqiy eshituvi rivojlangan bolalarni musiqani idrok etish, xotirada saqlab qolish layoqatlari shunga mos tarzda shakllanadi. Musiqiy eshitish qobilyati absolyut va solishtirma bo'lib absolyut eshitish, idrok, tasavvur, diqqat, xotira kabilar bilan uyg'unlashganda insonda tug'ma bo'lib bunday ohang, tonallik, usullarini tez va oson ilg'ab, qaytarib beraoladi.

Solishtirma qobilytga ega bo'lganlar esa asosan eshitgan musiqa asari tonligini aniq o'z ovozida ifodalay olishlari bilan ajralib turadi. Musiqa darslarida aksariyat hollarda eng qiyin masalalardan biri ham ayrim o'quvchilarda absolyut eshitish qobilyatini yaxshi rivojlanmagan hisoblanadi. Bunday bolalar ayniqsa qo'shiq kuylash paytida o'qituvchiga jiddiy

qiyinchiliklar tug'diradi. Ularni ovozini sozga, ansanbillikka uyg'unlashmasligi jamoaviy ijro sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqali eshitish qobilyati tashqi eshitish qobilyati va ichki eshitish qobilyatlaridan iborat bo'lib, tashqi eshitish qobilyati bu eshitgan musiqani qabul etish bo'lsa, ichki eshitish qobilyati esa musiqani eshitmasada fikr yuritish, notani ko'rib eshitganday musiqadan ta'sirlanish hususiyatiga egalikdir. Bu o'rinda musiqa o'qituvchusining vazifasi o'quvchi bolalarning ichki eshitish qobilyatini rivojlantirish uchun ish olib borishdan iborat bo'ladi. O'quvchini eng avvalo diqqat bilan musiqani tinglashga o'rgatish bu o'rinda eng samarali usullardan hisoblanadi.

Esda saqlash va ko'z oldiga keltirish, mustaqil holda ovozlarni (musiqiy tovushlarni) musiqiy holda ovozlarni his etish, tushunish, idrok etishga o'rgatish orqali musiqiy qobilyatni rivojlanishiga erishish mumkin.

Maktabda o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishga kirishishda birinchi navbatda musiqiy qobilyatni eng avvalo uni "musiqiy eshituvi" ni tekshirishdan boshlanadi. Shundan so'ng ularni ovozlari aniqlanadi va tegishli partiyaga ajratiladi.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarining "jamoaviy ijrochilik jarayoni o'quvchilarni eng muhim musiqiy qobilyatlardan musiqiy eshituvni rivojlantirish eng o'tkir vazifalardan hisoblanadi. Chunki, musiqiy eshituv, asarni idrok etish xotirada saqlab qolish, nazariy bilimlarni amaliyotda ifoda etish mana shu jarayonda yorqin namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki musiqiy qobilyatlar majmuini tinglash, kuylash, notaga qarab o'qish, eslab qolish, cholg'uchilikni o'quvchilarda shakllantirib boorish musiqa sohasidagi barcha mutahassislar uchun birdek zarur. Chunki, bu qobilyatlarni yaxshi rivojlanmaganlik holatlarini ba'zan kata yoshdagilar, jumladan kollej va hatto oliy o'quv yurtlari talabalari orasida ham uchratish mumkin. Musiqa pedagogikasi va psixolog olimlarning ilmiy tadqiqotlarida umuman qobilyatsiz kishini bo'lmasligi, lekin ayrim kishilarda ularni erta yoshdan yorqin namoyon bo'lishi (tug'ma iste'dod sifatida

baholashda) yoki aksincha ayrimlarda ularni sust rivojlanishi haqida fikrlar bildirib o'tilgan. Bular juda murakkab psixologik omillar bilan bog'liq bo'lib, ba'zan insonlar o'zida mavjud qobilyatlarni ham ko'pchilik oldida, shuningdek dars jarayonida namoyon qila olmaslik holatlari uchraydi. Bunga ba'zi insonlarda (o'quvchilarda) tortinchoqlik, ko'pchilik oldida sust bosish, uyatchanlik, o'z-o'ziga ishonch hissini yaxshi rivojlanmaganligi kabilar sabab bo'ladi. Bunday vaziyatlarda musiqa o'qituvchilari yuqori darajadagi psixolog-pedagog bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi har bir bolani doimiy ravishda induvidial qobilyatlarni aniqlash, ro'yobga chiqarish, o'rinli usul va vositalarni qo'llab ish tutish, o'quvchida avvalo o'z-o'ziga ishonch hissini tarbiyalash, uni rag'batlantirish, sahnaga, ko'pchilik oldiga takror va takror chiqarish muhim rol o'ynaydi. Musiqa mashg'ulotlarini pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi, uyushtirilishi, darslarni qiziqarli metod, usul, ko'rgazmali va texnik vositalardan unumli foydalanib o'tkazish o'quvchilarda darsga qiziqishlarni oshishiga olib keladi. Qiziqish esa o'z navbatida bolalarda uni o'rganish, kuylash, nazariy va amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini etarli darajada o'rganishga hohish-istak, rag'batni kuchayishiga sabab bo'ladi. Aynan mana shu omillar ularning musiqiy qobilyatlari shakllanishi jarayonini tezlashuvchi ham samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchi manashulardan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini olib borar ekan estetik tarbiyani mazmunli va samarali amalga oshirish maqsadida o'z oldiga qo'ydagi vazifalarni qo'ymog'i lozim.

1. Bolalarda musiqani sevish, unga havas va qiziqish uyg'otish;
2. O'quvchilarni qo'shiq kuylash ko'nikma va malakalarini, vokal-xor malakalarini tarbiyalash;
3. O'quvchilarni o'z ustida ishlash va ijodiy qobilyatlarni o'stirish ;
4. Qo'shiqlarni ta'sirchan va ifodali aytishga o'rgatish;
5. Musiqiy nazariy va amaliy bilm, ko'nikmalarini tobora boyitib borish;

6. Kuylash, tinglash jarayonida o'quvchilarning badiy didlarini o'sishiga imkoniyat yaratish;

7. Musiqaga bo'lgan estetik hissiyotlari va yehtiyojlarini, u haqda fikr yuritish, baho berish qobilyatlarini rivivojlantirish;

Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarda kerakli bilm, ko'nikma, malakalarini shu bilan ularni musiqiy qobilaytlari rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

II.BOB: Ta'lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash mazmuni.

2.1.Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash jarayonida tashkiliy-uslubiy va didaktik asoslari.

Aytish joizki, hozirgacha inson aql-zakovatining tarkibiy qismi, uning tuzilishi, namoyon bo'lishi juda ko'plab tadqiqotlar juda ko'p so'z va iboralarda ifodalanadi. Ya'ni qobilyatlar sirasiga kiruvchi juda ko'p so'zlar nutqimizda va yozma manabalarda ishlatiladi.

Shulardan ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

Intellekt- unga psixologiyada juda ko'p ta'riflar berilgan. Ulardan eng haqiqatga yaqini va to'g'risi bu-intellekt-insonning masalalar echa olish qobilyati-degan ta'rifdir.

Aql- tushunchalar hosil qila olish yoki masalalar echa olish qobilyatini bildiradi. Ma'lum ilmiy yoki hayotiy masalani engil, qisqa usulda echa olgan kishiga nisbatan aqlli so'zi ishlatiladi.

Zakovat- saviya, aqlning saviyasi, ko'lamiga aytiladi. Intelekt ma'nosi bilan uyg'un.

Zehn- bu aqlning tezligi. Insonni murakkab masalaga engil kirisha olishi, tushunish.

Iqtidor- bugungi kunda ta'lim muammolarida bilag'on bolaga nisbatan qo'llanmoqda.

Iste'dod- tabiat (Oloh) tomonidan berilgan nodir qobilyatlar majmui.

Talant- bu psixologik kategoriya emas, qobilyatning ijtimoiy bahosi.

Bularning barchasi qobilyatlar majmuini tashkil yetadi va ular insonning tabiy psixologik, ya'ni muayyan bir moddiy-irsiy hususiyatlari asosida butun hayot davomida shakllanadigan psixologik voqelikdir.

Musiqiy qobilyatlar muammosini tahlil qilishda avvalo, ular o'zaro bog'liq, bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydigan sifatlarning

yig'indisidan iboratligini aytish lozim. Shu nuqtai-nazardan musiqiy qobilyatlar tizimiga musiqani anglash (idrok), tinglay olish, tinglashni nazorat (boshqara) olish, musiqiy xotira, diqqat, tasavvur, musiqiy yeshituv va mahsus ijrochilik qobilyatlari (cholg'u asbobida chalish, kuylash, raqsga tushish) kiradi.

Musiqiy qobilyatlarining ta'kidlab o'tilgan turlari ichida musiqani anglash eng muhim qobilyat sanalib, u psixologiyada musiqani idrok etish, his etish, muayyan badiiy mazmuni ko'z oldiga keltirish deb tushuniladi.

Musiqani anglashni tarbiyalash mumkin va uning rivojlanishi musiqa ma'lumotlarining qanday tashkil etilishiga bog'liqdir. Bu borada bolada musiqa materialiga qiziqish uyg'otish musiqani jozibali eshittirilishi, ijro qilinishi, obrazlilikidan zavqlanishga erishish zarur zotan "qiziqishgina " bolaning diqqatini musiqa asariga jalb etadi, eshitgan narsalarini eslab qolishga hamda ifodalab berishga yordam beradigan kuzatuvchanligini vujudga keltiradi. Musiqaga qiziqish uyg'otishda yoqimli ovoz, mohir ijrochi cholg'u jo'rliqi, obrazlilik va qo'shiq matni muhim rol o'ynaydi. Bular ta'sirida bolada o'sha qo'shiqni o'rganish, kuylash, chalish istagi paydo bo'ladi.

Mana shularga asoslanib tajribali pedagoglar bolalar bilan ishlashda xalq musiqasining yorqin va xilma-xil kuylaridan, usullaridan, o'yin qo'shiqlardan, shuningdek musiqiy obrazlari va kayfiyati bolalarga yaqin asarlardan foydalanadilar. Bunda turli harakterdagi-quvnoq, tantanavor, raqsbop, o'yinli, g'amgin, qo'shiq-kuylarni anglash, farqlash his etishni o'rganishga harakat qiladilar.

Musiqani diqqat bilan tinglash-murakkab psixologik hususiyat bo'lib, bir necha omillarni ichki,yuqori tovushlarni, ladni, ohangdorlikni, tembr, dinamika, usul kabilarni eshitishni o'z ichiga oladi. Musiqani bunday eshitishning mohiyati musiqiy tinglash tasavvurlari bo'lib tovushlarni, tovush birliklarini, ohanglar mutanosibligini tushunish qobilyati sifatida namoyon bo'ladi.

Musiqiy eshitish tasavvurlarining psixofizologik asosini aniqlashda sezgi va tasavvur bilishning birinchi pog'onasi ekanini nazarda tutish kerak. Bunday qobilyatsiz kuyni eslab qolish ham qayta ijro etish ham bo'lishi mumkin emas.

Musiqiy tinglash tasavvuri ham boshqa hamma qobilyatlar singari tug'ma bo'lmaydi, uni shakllantirish va rivojlantirish pedagogning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalardan hisoblanadi. Pedagog bu faoliyatini shunday tashkil etish lozimki, bolalarning kuylash, ritmik jo'r bo'lish, raqs harakatlari bajarish, bolalar cholg'ularida bajaradigan hamma ishi, harakati eshitishning doimiy nazorati bilan amalga oshishi kerak. Bola bunda ichki ichki eshitish orqali o'z bajaradigan ishini nazorati bilan amalga oshishi kerak. Pedagog rang barang, obrazli taqqoslashlarga ko'proq murojaat qilishi, alohida tovushlar va tovush birikmalari bilan ansanbl, orkestr, xor ovozlari qiyoslash kerak.

Eshitish bilan birga musiqiy nutqning eng muhim ifoda elementi bo'lishi ritmni ham rivojlantirish zarur. Ritmni anglash, his etish, aniqlash ustida ishlash faqat nota yozuvini aniq bajarish va mehanik hisobdan iborat bo'lmasligi kerak. O'quvchilar birinchi mashg'ulotlardan asar usulini tushunib olishlari, kuchli, kuchsiz hissalarini ifodalagani his etishni o'rganishlari kerak.

Musiqiy qobilyatlar siljishida xotira ham muhim ahamiyatga ega bo'lib bu tushuncha eshitish, ko'rish, harakat, mantiqiy tahlil xotiralarini o'z ichiga oladi.

Mahsus ijrochilik qobilyatlari ko'pchilik uchun kuylash va chalishga intilish, ilhom bilan ijro etish, tinglovchilarni mehnat qila olishida ko'riladi.

Sanab o'tilgan qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni qanday tashkil etish, ishni nimadan boshlash qanday didaktik usullardan foydalanish yasxhi natija beradi degan masala yuzasidan ko'plab tadqiqotlar qilingan.

Tadqiqotchi E.Yefrusi o'qituvchilarni eshitishini tarbiyalarida avvalo o'quvchining ichki eshitishni rivojlantirish va ko'rsh-eshitish aloqalarini mustahkamlashning qiziqarli usullarini tavsiya etadi. Pedagog biror kuy parchasi alohida tovushni, mashqni chaladi, uning yozuvini ko'rsatadi. O'quvchilar uni topishlari kerak. Yana biri ilgari o'rganilgan qo'shiq, mashq ichda kuylanadi, so'ngra ovovz chiqarib kuylash bilan almashinadi. Kuyni tanlashni topish harakterini aniqlash, usul berish, davom ettirish va ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirib borishga erishish ko'zda tutiladi.

Musiqani eshitib tasavvur qilish qobilyati musiqiy qobilyatning etakchi turi bo'lib hisoblanadi. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchi ovozi tonga tushish-tushmasligini aniqlash va ovozi tonga tushadigan o'quvchilar bilan mahsus mashg'ulot va mashqlar olib borishni taqozo etadi. Masalan, o'quvchiga dastlab 1ta tovush, deylik "do" tovushini(1oktava) o'zlashtirib olishga harakat qilinadi. So'ngra "do" bo'gini boshqa pardada kuylanadi, tovush yarim ton yuqoriga, yana o'z o'rniga tushirib kuylanadi. Bu mashq yarim ton pastga tushirib kuylanadi. Bu vazifa bir necha bor takrorlanadi. Shunday holatlar ham kuzatiladiki, o'qituvchi "do" tovushini fortopianoda chaladi, o'zi kuylaydi, o'quvchidan qaytarishni so'raydi. O'quvchi kuylagan tovush boshqa parda tovushi bo'lib chiqadi. Bunda o'qituvchi o'quvchidan shu tovushni qayta kuylashni talab qiladi va dastlabki tovushga "tushish" yoki "ko'tarish" mashqini birgalikda kuylashga kirishiladi.

Bir tovushni turli cho'zimda tez, sekin (cho'zib) takror intervallar kuylash, bir tovushni o'quvchi cho'zib turadi, o'qituvchi ikkinchi tovushni kuylaydi va bu aksincha takrorlanadi, major, minor uch tovushliklarini 1,2 tovush kuylashda, 3-tovushni musiqasiz o'quvchini o'zi kuylaydi, bir,ikkita kuy qo'shiq so'zlari bilan o'rganiladi va so'ngra nota nomlari bilan aytiladi va xokazo.

Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarni nosoz intonasyasi ko'p uchraydi va xor rahbariga yaxshi soz, ansanbillikka erishishda jiddiy qiyinchilik tug'diradi. Bu nuqson ham o'sha o'quvchilarda "musiqiy eshituv(sulh) qobilyatini yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Xor amaliyoti, tajribalari shuni ko'rsatadiki bunday bolalar bilan umumiy musiqiy tarbiyaviy ishlarni olib borish jarayoni yaxshi natijaga erishish mumkin. Bu muammo hozirgi kunda barcha bo'g'inlarda olib borilayotgan musiqaviy ta'limiy ishlarda, shu jumladan umumta'lim maktablari musiqa ta'limi va tarbiyasida ham o'tkir muammo bo'lib turibdi.

Mahsus tadqiqotlar natijalaridan shu narsa aniqlandiki "yomon intonasya"ning (intonasya- tovushlarni aniq balandligida talafu qilishni bildiradi) bir qancha sabablari mavjud. Bularga ovoz bilan eshitish a'zolarining

o'zaro bog'liqlik jihatlarini nomuvofiqligi, ovoz va eshitish a'zolarini etarli darajada rivojlanmaganligi, jamoaviy ijrochilik bo'yicha ma'lum darajada tajribaga ega bo'lmaslik, kuylash sifatiga salbiy ta'sir etuvchi- qichqirib kuylash, tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik, ortiqcha hayajonlanish, shu bilan birga qo'shiq ijro etishga sovuqqonlik bilan, e'tiborsizlik bilan qarash, haddan tashqari faollik ko'rsatishga intilish va o'smirlik yoshidagi mutasya jarayoni kabilarni kiritish mumkin.

Tajribali pedagoglarning ko'rsatishicha ko'pchilik "noto'g'ri kuylovchi" bolalar asta-sekin o'z-o'zlarini eshitishga va o'z ijrosini to'g'irlab olishga erishadilar; Lekin, ko'pchilik o'qituvchilar buni kutishga sabr qilmaydi va ilk mashg'ulotlardan butun sinfni bir xil intonasya qilishga erishishni istaydi. Bu o'rinda sof intonasyaga erishish bo'yicha ko'plab tajribalar to'plangan. Shulardan biri o'quvchilarni defersial guruhlarga bo'lib ishlashdir.

Bu uslubning muallifi S.Brandel butun sinfni bosh guruhga bo'lishni, (intonasya qilish darajasiga qarab) taklif qiladi va ularning har biridan kuylash paytida ko'proq topshiriqlarni bajarishni talab qiladi. Har bir guruhdagi o'rtoqlarining kuylashiga halaqit berayotgan bolalarni bir pog'ona past guruhga o'tkazib boradi. O'quv yilining ohirigacha bo'lgan davrda shu metod yordamida to'rtinchi va beshinchi guruhlardagi o'quvchilarni minimal darjada kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa keying bosqichlarda butun sinf o'quvchilarini yaxshi intonasiya bilan kuylashlariga erishadi. Defersial uslubda o'qitishning afzalligi ko'p jihatdan darsda o'quvchilarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish va bu faoliyatni pedagogik va metodik jihatdan muvofaqiyatni tashkil yetilishiga bog'liq deb yozadi Brandel.

Bu borada yanada qiziqarliroq ish usullari ham aniqlangan. O.Akrakello va N.Orlovalarning "Oquvchilarning noto'g'ri kuylashlari aniqlash va ular bilan ishlash uslublari" nomli maqolasida bir qator pedagoglarning tajribalari misol qilib keltiriladi.

A.G.Ravinov "noto'g'ri" kuylovchi o'quvchilarga qo'shiq o'rgatishda yuqori registr tovushlarini "hujumi" ga ye'tiborni qaratish, ya'ni kuylashni

birdaniga yuqori tovushlardan boshlashni ma'qul hisoblaydi. Ko'pgina bolalar pastki ovozda so'zlashishga odatlanganliklari tufayli kuylashda shu hususiyatni saqlab qoladi. A.G.Ravvinov degan pedagog esa bolalarga yuqori "ton" da (baland ovozda) so'zlashish va o'qishni taklif qiladi, qo'shiq kuylash jarayonida esa baland ovoz bilan kuylash usulidan foydalanish yaxshi samara berishni ta'kidlaydi.

V.K.Belobordova tomonidan qo'llangan uslub ham A.G.Ravvanov uslubiga yaqin hisoblanadi. V.Belobordova yuqori tonda tovushlarni turli ko'rinishi va o'hshatishlar bilan kuylashga o'rgatish, buni o'yin harakterida tashkil etish uslubini taklif etadi. V.K. Beloborodva bolalarga masalan, musiqaning qanday kuylashni eslashlarini va "ku-ku"bo'g'inini Do-lya, tovushlarida kuylashni, yoki huddi shu Do2-Do1- tovushida "pif-paf" bo'g'inida o'z otilishida jaranglaydigan ovozga o'hshatib ifoda yetishni taklif qiladi. Dastlabki ma'lumotlarda hazil qo'shiqlar, bolalar o'yin qo'shiqlaridan foydalanishgan, chunki ularda o'yin harakatlari qo'llanishi, bolalarni ularni o'rganishga qiziqishlarini kuchaytirishni inobatga olib yuqoridagidek uslubdan foydalanib ish tutish afzalligini o'qitadi.

Otgan asrning 50-60 yillarida shunday tadqiqot o'tkazilgan. Bu tajribani mohiyati shundan iborat bo'lgani tahminan maktabni (3 ta sinfiga) birinchi sinfiga kelgan bolalarni nechtasi toza kuylayolmaydi. Ya'ni, musiqiy eshituvi va "intelyasyasi" talab darajasida emasligi aniqlanadi. Unga bir necha o'quvchilar talab etiladi va ular dastlabki ikki-uch dars davomida o'quvchilarni musiqiy yeshituv, eslab qolish, diqqat, musiqani idrok etish qobilyatlarini, sinovdan o'tkazishadi. Bu o'rinda dastlab qo'ydagicha metoddan foydalaniladi. Har bir boladan bor yo'gi ikkita tovushni lya,-fa, kuylashlari so'raladi. Oldiniga sinfning barcha o'quvchilari bir necha bor yuqoridagi tovushlarni birgalikda kuylaydi. So'ngra har bir o'quvchi bolani o'z ismini aytib kuylashlari va nihoyat tovushlarni bir hil balandlikda takror qaytarishlari taklif etiladi.

Bunday tajriba natijasida albatta o'quvchilarning sluxini va kamchiliksiz darhol aniqlashga erishib bo'lmasligi bois bu ish davom ettiriladi. Dastlabki

tekshirish natijalari 97 o'quvchidan 26 tasini musiqiy eshituvi, xotirasi, uquvi yaxshi rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Bu esa nisbatan ko'p bo'lib, o'quvchilardan o'z ishchi, mashg'ulotlar jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan alohida shug'ullanish, doimo etiborda tutish, ishchi yangi metodlardan foydalanib ish tutish zarurligini ko'rsatadi. Chunki, bunday holat hozirgi kunda ham har bir maktab o'quvchilari orasida uchratishimiz tabiiy holdir.

O'quvchi musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ish olib borish kerak. O'quvchilarni jismonan sog'lomligini, tomog'i tez tez og'rib turadimiyo'qmi, qulog'i, eshitishini qay holatdaligini vrach ko'rigidan o'tkazib turish lozim.

Biz ham o'z izlanishlarimiz davomida bu kabi holatlarga e'tibor qaratdik. Ayrim musiqa darslarini kuzatganimizda o'qituvchining fortepiano oldidan ketmay dars o'tishi, barcha bola yaxshi eshitsin deb, cholg'u asbobini qattiq chalib, o'zi ham qattiq ovozda kuylashni guvohi bo'ldik. Bunday dars o'tish jarayonida o'quvchi bolalarni to'g'ri intonasiyasini, musiqiy uquvi, sluxi, diqqati, xotirasi sust bolalarni yaxshi kuzatolmaydi va ulardagi o'zgarishlarni yaxshi sezmaydi, demak o'quvchini bunday holatda barcha o'quvchilarni imkon qadar kuylash, tinglash, sof intonatsiya qilish, eslab qolish qobilyatlarini darajalarini tenglashtirish haqida hech qanday fikr yuritib bo'lmaydi.

Musiqa darslaridagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonining asosi ularni musiqani idrok etish, anglash, tasavvur qilish, musiqiy obrazlar harakteri, asar g'oyasi mazmunini tushunish, qo'shiqni tushunib kuylash, kuylashda soz, ommaboplikka to'liq erishish, o'rganilgan asarlar haqida o'z fikrini to'g'ri ifoda etishga erishishlarini ta'minlashdan iboratdir. O'quvchilar dars jarayonida turli harakter, asarlarning musiqiy ifoda vositalarini o'zlashtiradilar, ta'sirchan kuylash ko'nikma va malakalarini egallaydilar, turli murakkabliklar (interval, akkordlarni, matnni yaxshi talaffu qilish, turli "sakrama" larni oson intonatsiya qilish) ni engish yo'llarini o'rganadilar. O'quvchilar umumiy musiqiy kamol topish, musiqa madaniyatiga xos bilm,

ko'nikma va malakalar orttirish bilan birga asta sekin nazariy ma'lumotlar to'playdilar, ularda musiqiy bilimlarni butun bir kompleks zahirasi shakllanadi va bu ularni o'z navbatida musiqiy qobiliyat iqtirdorlarini rivojlanishi, takomillashib borishiga-samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda o'qituvchining darslarni pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri, qiziqarli tashkil etishi, darsda uni samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ish shakl, usullari, vositalaridan, psixologik-fizologik imkoniyatlarni kuzatib borishi, har bir o'quvchini ushbu hususiyatlariga ko'ra ularga mustaqil topshiriqlar bajarillishini muntazam ravishda nazorat qilib, o'quvchini rag'batlantirib borishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarni yoki, harakterlari, musiqiy qobiliyati, qiziqish darajasi har hil o'quvchilar bilan o'ziga hos uslubda shug'ullanishda badiiy-pedagogik ta'sir ko'rsatishining juda ko'p usullari hamda vositalaridan mohirona foydalana bilish kerak. Shu bilan birga har bir o'quvchi uchun o'ziga hos yondashuv, muloqot va muomala yo'lini va tabiiyki musiqa repertuarini tanlash va bu repurtuar o'quvchida kuylash, tinglash jarayoni uchun zarur sifatlarni faollashtirishdan va takomillashtirishdan iborat bo'lishi lozim.

Mashg'ulotlar sifatli va samarali bo'lishi, darsda har bir o'quvchini faol ishtirok etishi uchun, darsdan darsga o'tish jarayonida ularda sifat o'zgarishlari minimal darajada bo'lsada sodir bo'lishi uchun ular reja asosida izchil olib borilishi, o'qituvchining har bir darsdan ko'zlangan maqsadga o'quvchilarning har bir darsdan ko'zlangan maqsadiga, o'quvchilarning kelajakdagi kamolotini oldindan ko'rib, shunga erishish yo'llarini qidirib ish tutish kerak bo'ladi.

Shunga ko'ra o'qituvchining yana bir ye'tibor berishi lozim bo'lgan vazifasi o'quvchi shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish, uning mustaqil va ijodiy intilishiga shart-sharoit yaratishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Musiqiy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim o'quvchilarni musiqiy nazariy bilimlarini o'zlashtirish va musiqiy qobilaytlarini rivojlanishida ham ta'limiy ishlarning tarkibiy qismi bo'lishi lozim. Mustaqil ta'lim faqat uy vazifalarini bajarishdan iborat bo'lib qolganligi, bu jarayondagi yo'naltiruvchi omil

musiqiy qobilyatlarni rivojlantirishga qarayilmog'i lozim. Musiqiy qobilyatlarni rivojlanishi musiqa bilan shug'ullanish jaryonida yemotsional idrok, musiqani anglash, diqqat, hayol, ijodiy tashabbus va boshqa psixik sifatlar bilan bog'liq holda takomillashadi. Musiqiy qobilyatlarning shakllanishi va ularni rivojlantirish bo'yicha ishlash, qiyoslash, taqqoslash, tahlil va sintez qilish kabi aqliy qobilyatlarning rivojlanishiga tarkibiy bog'liq ravishda kechadi va bularsiz mustaqil va induvidial ishlashning muvofaqiyatli kechishi haqida gapirish o'rinsizdir.

Mustaqil faoliyat qanchalik ongli bajarilsa, shunchalik samarali bo'ladi. Musiqani tinglash va qo'shiq kuylash-ongli faoliyatdir. Har qanday ta'lim singari o'quvchilar bilan mustaqil va individual ishlash ham fikrlashni, irodani, tashabbusni va ijodiy izlanishni talab qiladi. O'quvchi darsda u yoki bu masalani qanchalik ongli va maqsadga muvofiqroq ravishda hal qilsa, u bilan olib boriladigan mustaqil va individual ishlar ham shunchalik samarali bo'ladi. O'quvchilarda tahlil va umumlashtirish, taqqoslash kabilar rivojlantirilmasa ularning musiqiy tafakkuri mustaqil va faol bo'lishi mumkin emas. Tinglash, kuylash, tahlil qilish o'rganilayotgan asarlar bilan bog'lansagina yaxshi o'zlashtiriladi.

Ma'lumki, pedagogika shaxsni tarbiyalash va unda mahsus ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga bir-biridan ajralmas yagona jarayon sifatida qarydi. Musiqiy ta'lim jarayonda o'quvchi his etadigan estetik kechinmalar bilan birga qo'shiq kuylash, raqsga tushish, bolalar cholg'u asbobida chalish, musiqaga ritmik jo'r bo'lish, ijodiy mustaqillikni, diqqat va intizomni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu sifatlar ijrochilik amaliyotida shakllanib va rivojlanib o'quv faoliyatining boshqa sohalariga ham ko'chadiki, musiqiy- ijrochilik faoliyatining kuchi va ahamiyati, ijtimoiy roli ana shundadir. Musiqiy badiy faoliyat inson qobilyatlarining turli jihatlarini qamrab olishi sababli o'quvchilar bilan olib boriladigan mustaqil va induvidial ishlash uni musiqa estetik kamol topishida kata ahamiyat kasb yetadi. O'quvchilarda har bir narsaga mustaqil holda o'rganish, o'zlashtirishga intilish, harakat qilish malakalari rivojlanmasa har

tomonlama kamol topishlarim mumkin emas. Shuning uchun har bir musiqa o'quvchining ishi yosh avlodni muvofaqiyatli o'qitish va musiqa madaniyatini shakllantirish imkoniyatlarini yaratadigan hamda hozirgi davr talablariga javob beradigan shakl va usullarini izlab topish va amalda qo'llashni kun tartibiga qo'yadi.

O'qituvchi o'z dars o'tish uslubi bilan o'quvchilardagi musiqiy qobiliyatni shakllantirishga, rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Musiqa madaniyati darslari o'quvchi oldiga juda ko'p va turli mazmunidagi vazifalarni qo'yadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun vazifalarni sinflar kesimida qo'yadigicha bo'lishi mumkin:

1-jadval

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy idrok qobiliyatlarini shakllantirish.

1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf
Musiqiy idroknini, tafakkurni shakllantirish.			
Musiqaga qiziqish va muhabbatni shakllantirish. Eshitish qobiliyatini, musiqa ga emotsional ta'sirchanligini shakllantirish. Musiqani farqlay olish, ajrata olish, baholay olish, yo'naltirish, rivojlantirish.	Musiqiy ta'surotlar ni boyitish, musiqa tinglash hohishini tarbiyalash, musiqadagi o'zgarishlarni, janrlarni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirish.	Musiqiy ta'surotlar ni kuchaytirish, musiqa yordamida atrof muhitga, ona vatan, ona tabiatga estetik munosabatni shakllantirish. Har-hil harakterdagi musiqani, tovushlar baland pastligi, ritm, tembr, va dinamikasini idrok etish.	Musiqaga barqaror qiziqish va muhabbatini, qo'shiqlarni vokal xor talablari ga muvofiq ijro etishga intilish, musiqa tinglash jarayonida emotsional tashabbus, melodik eshitish qobiliyati, ritm, hissi, tembr, dinamikasini eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish.

Kuylash malakalari ni va musiqa ostida harakatlar bajarishni shakllantirish. Intonasyani tozaligiga, harakatlarni ritmiga va musiqa ga mosligiga erishish.	Ovozning kuyga mos, ifodali va ritmga hos yangra Shiga erishish. Do major gammasini yoddan kuylay olish.	Vokal tovush hosil qilish ikki ovozda kuylash ko'nikma va malakalarini egallash. sof intonasya, soz va yaxshi ansanbil likka erishish.	Kuylash jarayoni Da intonasya tozaligiga, ifoda viylikka, obrazlikka erishish. Ko'p ovoqli kuylash, varaqdan o'qish, "Solfedjio" qilish malakalarini shakllantirish.
--	--	--	--

Musiqqa talimini mazmunini bu kabi tarkibiy qism o'quvchilar qanchalik chuqur o'zlashtirish ularni musiqiy qobiliyati rivojlanishiga eltuvchi doimiy yekanligidan dalolat berishidir.

2.2. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning o'ziga xos texnologiyasi.

Ishimizning oldingi bobida to'xtalib o'tganimizdek musiqa o'qitish metodikasi fani pedagogikaning tarkibini bir bo'lagi sifatida umumiy pedagogikada mavjud bo'lgan hamda har-bir fanning hususiyatida kelib chiqqan holda vujudga kelgan tajribada sinalgan o'qitishning samarali shakl usul va vosiatlarini umumlashtiradi va ulardan amaliyotda foydalaniladi. Shu nuqtai nazaridan musiqa o'qitish metodikasi o'z vazifalarini amalga oshirishda pedagogika psixologiya, estetika va san'atshunoslik kabi fanlarning ilmiy tadqiqot natijalariga tayanadi. Musiqqa o'qitish metodikasi ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan ishlash usullarining mazmunini o'zida mujassamlashtiradi.

Musiqqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda bir qator tajribada sinalgan va keng ommalashgan metodlar bilan birgalikda musiqa ta'limi tarbiyasini o'ziga xosligi jihatidan

yuzaga kelgan hususiy metodlar muhim o'rin tutadi bir qator etuk olimlarning ilmiy tadqiqotlarida musiqa o'qitishning o'ziga xos hususiyatlari musiqa o'qituvchisining kasb mahoratiga qo'yiladigan talablar dars jarayonida qo'llaniladigan metodlar va ular orqali ham qilinadigan vazifalar ilmiy asoslar ta'riflab berilgan. Bu o'rinda o'qitishning hususiy (optimal) metodlariga alohida to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

1. Darsni musiqiy umulashtiruv metodi bunda o'quvchi darsda hamma qilinishi lozim bo'lgan masalalarni tizimlashtiradi .

- o'qituvchi va o'quvchi mavzuni o'rganishga erishishlari lozim bo'ladi.

- darsning har bir komponenti (faoliyatlar) mazmuni uyg'unlashadi

2. O'tilajak mavzularga oldindan "yugurib" bog'lanib o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi. – Ilgari o'tilgan materialdan foydalanib yangi materialni o'zlashtirishga erishish, yoki hali o'tilmagan mavzuga oid qonun qoidalardan foydalanish.

3. Darsning emotsional dramaturgiyasi metodi o'qituvchi darsni qiziqarli uyushtirish, darsda o'quvchilar faol ishtirok etishi va emotsional ta'sirchanlikka ega bo'lish.

4. Darsni pedagogik kuzatilishi bilimlarni baholash metodi. – O'quvchilarni bilim va o'zlashtirishlarini nazorat qilib borish,

- bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash.

Musiqa o'qitishda ushbu metodlar bilan birgalikda pedagogikaning umumiy metodlaridan ya'ni; - musiqa o'qitishning azaliy metodlari (hikoya , suhbat, tushuntirish) - ko'rgazmali o'qitish metodlari, taqqoslash metodlari musiqiy uquvvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash kabi metodlardan keng foydalaniladi.

Biz ushbu bandda (musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi) ning mazmun mohiyati va qo'llanishga batafsilroq to'xtalib o'tamiz;

Ma'lumki boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh vazifasi va asosiy maqsadi o'quvchilarni musiqa darslariga qiziqishlarini musiqani diqqat bilan tinglash, asarlarni harakterini (quvnoq, sho'x, raqsobop,marsh) his etish, kuy qo'shiqni nima haqda ekanligini idrok etishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Musiqa darslarida "qo'shiq kuylash eng etakchi faoliyat bo'lib, darsning asosiy qismi (20-25 daqiqasi) ushbu faoliyatga bag'ishlanadi." Chunki ; ushbu faoliyatda o'quvchilarni "jamoaviy ijrochilik" ka o'rgatish talab etiladi. "Jamoaviy ijro" chilikka esa o'ziga xos murakkab psixologik va fiziologik hususiyatlar yaxlitligini ya'ni o'quvchilarni umumiy bir "organizmga" birlashib o'zaro sozlanib ansanbillik xosil qilib kuylashga erishishlarini taqozo etadi bu esa aytishgagina oson bo'lib, amalda ko'pchilik bir sinf o'quvchilarni bir tekis sof unisonda, sof intonatsiya qilish so'zlarni aniq, tushunarli talab qilish, o'qituvchi ovozi musiqa cholg'usi ga sozlanib kuylashlari juda qiyin va murakkab vokal xor ishlarini talab qiladi. Musiqa amaliyotida bu bosqich juda jiddiy jarayon bo'lib har qanday o'qituvchi ham mazkur faoliyatni muvofaqiyatli tashkil etmasligi kuzatilgan. O'quvchilarning musiqiy qobilyatlariga ko'ra o'quvchilarni ovozini tonga tushmasligi, uning musiqiy eshituvi (sluxi) yaxshi rivojlanmaganligida musiqa kuyini yoki aytim yo'lini yaxshi eslab qolmasligi tezda o'zlashtira olmasligi xotirasini sustligidan dalolat beradi. Bu o'rinda vokal tovush hosil qilish, o'z ijrosini o'zi sezib kuzatib borishi quvnoq ujrosida tempga asar tonalligiga o'qituvchi hamda sinfdoshlari ovoziga sozlanishi, nafas olish uni sarflash toza intonatsiyaga erishishda barcha o'quvchilar birdek bo'lmasligi, o'qituvchidan o'ziga xos pedagogik yondashuv va turli ish usullaridan foydalanib ish tutishni talab qiladi.

Mana ish tutishning eng maqbul va samarali usullaridan biri musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan (qobilyati) o'quvchilar bilan va dars jarayonida deferentsial guruhlarga bo'lib va darsdan keyin yakka induvidial ish olib borish hisoblanadi.

Deferentsial guruhlarga bo'lishda o'qituvchi eng avvalo bir necha ma'lumotlar davomida o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini diqqat bilan o'rganib chiqishi lozim. Buning uchun mahsus daftar tutish unda har bir o'quvchining eng muhim musiqiy qobilyati bilan bog'liq hususiyatlariga ta'rif berib borilishi lozim bo'ladi. Bu hususiyatlarini eng muhimlari biznikiga qo'shuvchilardir;

- o'quvchining musiqiy eshituvi (sluhi) qoniqarli a'lo darajada qoniqarsiz.

- musiqiy xotirasi a'lo darajada yaxshi qoniqarli qoniqarsiz

- ovozi tonga tushadi har doim emas, tushmaydi

- o'z ijrosini nazorat qiladi boshqalarni musiqani yaxshi eshituvi qoniqarli qoniqarsiz.

- diktsyasi anotatsyasi yaxshi qoniqarli va qoniqarsiz.

- ovozining tembri, ovoz hosil qili yaxshi qoniqarli qoniqarsiz.

Shundan so'ng ushbu hususiyatlarga kurs o'quvchilari uch guruhga ajratiladi.

1-guruhga musiqiy eshituvi sluhi yaxshi rivojlangan ya'ni o'qituvchi, ovozi, musiqa sozi, o'rtoqlari ovoziga sozlanib (tonga, tonallikka) kuylaydigan ovozi jarangli, musiqaga havasi baland o'quvchilar kiritiladi. O'qituvchi ushbu guruhdan ma'lum bir (3,4,5) o'quvchilarni o'ziga yordmchi qilib olishi ham mumkin.

2- guruhga esa musiqiy qobilyatlari ya'ni musiqiy eshituvi o'rtacha bo'lgan (juda yaxshi emas, juda ham yomon emas bunday holat ba'zan o'quvchini ruhiy hususiyati bilan bog'liq bo'lishi va tizimli mashg'ulotlar jarayonida ijobiy tomonga o'zgarib ketishi mumkin) shunengdek o'qituvchi ovoziga ergashib kuylay oladigan o'qituvchi ko'rsatmalarini tezda bo'lmasada tushunib kuylashga harakat qiladigan o'quvchilar kiritiladi.

3- guruhga esa ovozi tonga tushmaydigan (musiqiy eshituvi sluhi sust rivojlangan) musiqani yaxshi idrok etaolmaydigan musiqiy xotirasi

ham yaxshi bo'lmagan ovoz imkoniyatlaridan yaxshi foydalana bilmaydigan tempni ritmni his qilolmaydigan o'quvchilar kiritiladi.

Musiqqa darslari jarayonida o'quvchilar mana shu uch guruh hamda sinfda qo'ydagi tartibda joylashtiriladi (partalarga o'tkaziladi).

Birinchi guruh bolalari partalar joylashuviga ko'ra eng ohirgi qatorlarga joylashtiriladi.

Ikkinchi guruhga kiritiladigan o'quvchilar ya'ni musiqiy qobilyati o'rtacha baholangan o'quvchilar eng oldingi qatorlarga joylashtiriladi.

Uchunchi guruhga mansub o'quvchilar ya'ni musiqiy eshituvi, sluhi, hotirasi sust o'quvchilar sinfning o'rtasidagi qatorlardan joy olishadi.

Bunday joylashuv deferentsial guruhlar holidagi joylashuv bo'lib, birinchi qatordagi bolalar o'qituvchi ovozi musiqqa cholg'usini yaqindan eshitadi ikkinchi qatordan joy olgan o'quvchilar (musiqiy qobilyati bo'sh) o'zlaridan oldinda turgan va ulardan keyin joylashgan o'rtoqlarini ijrolarini eshitish ularga ergashib kuylash imkoniyatiaga ega bo'ladi.

Mazkur uslubning ijobiy tomoni birinchidan o'quvchida "yaxshi" guruhga qo'shilish uchun intilish o'z ustida ishlash harakat qilishiga rag'bat uyg'otadi va ma'lum vaqtdan so'ng o'z nihoyasiga etishi mumkin bo'ladi.

- ikkinchidan o'z o'rtoqlari ijrosini eshitib kuylashlari uchun qulay vaziyat yaratiladi va bularni eshitib kuylash ergashib kuylash va o'z ijrolarini nazorat qilib borish ko'nikmalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Bunday uslubni o'quvchilarni ijrochilik ko'nikma va malakalari ma'lum bir silliq darajasiga yaqinlashguniga qadar nafaqat birinchi, balki ikkinchi, uchunchi va hatto to'rtinchi sinflarda ham qo'llash mumkin.

O'quvchilar bilan sinfdan tashqari faoliyatda induvidial ish olib borish o'qituvchining o'z kasbiga fidoyiligi ma'sulligini belgilovchi fazilatdir. Hqiqiy pedagog musiqiy uquvi (qobilyati yaxshi rivojlanmagan,

yoki o'z iqtidorini yaxshi namoyon eta olmaydigan) bo'sh bolalar bilan yakka tartibda ish olib borishni o'zining burchi deb bilishi zarur. Chunki ayrim bolalar musiqiy talablarni to'g'ri bajara olmaslikdan ruhan qiynalishlari, musiqa darslaridan "bezib" qolishlari mumkin. O'qituvchi o'quvchi bilan induvidial ishlashdan oldin uning psixologiyasini ijobiy va salbiy hislatlarini yaxshi o'rganib olishi lozim bo'ladi shunga ko'ra o'quvchiga to'g'ri maslahat berishi, kishi harakat qilsa, intilsa hamma narsaga erishishi mumkinligini yaxshilab tushuntirishi uning yaxshi sifatlarini maqtashi, rag'batlantirib borishi va unda birinchi navbatda musiqa bilan mustaqil shugullanishiga ishtiyoq uyg'otishi lozim bo'ladi. O'quvchi bilan olib boriladigan ta'limiy tarbiyaviy ish har bir o'quvchi uchun alohida uning induvidial hususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilmog'i, har mashg'ulotda o'quvchiga uy vazifasi ya'ni mustaqil topshiriqlar berib keyingi ma'lumotlarda natijalar tahlil qilinib borilmog'i shart. O'quvchini o'z ustida mustaqil ishlashi o'rgatish bu faoliyatda eng muhim jihat hisoblanadi. Ovozi tonga tushmaydigan o'quvchilar bilan fortepianoda gamma kuylash oddiy xalq qo'shiqlarini ayrim bandlarini musiqa cholg'usida qayta qayta ijro etish o'qituvchiga tahlil qilib kuylash birgalikda kuylash birgalikda kuylash musiqani diqqat bilan tinglash, solfedjiolash kabi usullar bilan olib borilishi mumkin.

Xotirasi sust o'quvchilar bilan tovushlarni aniqlash (eshitib aniqlash) raqsobop, sho'x, xalq kuylarini ayrim qismlarini eshitish, "emitatsiyay" qilish intervallar taqqoslash kabi usullardan foydalaniladigan holda ish olib borish samarali bo'ladi.

Vokal tovush hosil qilish yarim yopiq ovozda kuylash nafasni to'g'ri olish, miyorida sarflash bo'yicha ishlar bevosita o'qituvchining ko'rgazmaliligi orqali ya'ni "o'qituvchiga taqlid qilish" orqali tashkil qilinishi yaxshi natija beradi.

O'quvchi ijrosini yozib olish so'ngra o'ziga eshittirib hatolarini birgalikda tahlil qilish va o'quvchi bilan induvidial ish olib borishning yaxshi usullaridan hisoblanadi.

Ko'rinadiki o'quvchilar bilan induvidial va ularni deferentsial guruhlarga bo'lib sinfda va sinfdan tashqari faoliyatda ish olib borishga umumiy holda ta'lim jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarashni taqozo etadi.

Sinfda va sinfdan tashqari faoliyatda o'quvchilar bilan olib boriladigan barcha ishlar o'quvchi shaxsining musiqani nazariy va amaliy jihatdan o'zlashtirishlari uchun sharoit yaratadi. Ma'lumki pedagogika shu jumladan musiqa pedagogikasi va metodiaksi shaxsni tarbiyalash unda mahsus ko'nikma va malakarni rivojlantirishga bir-biriga ajralmas yagona jarayon sifatida qaraydi. Musiqa ta'limi jarayonida o'quvchi his etadigan yuksak estetik kechinmalar bilan birga turli janrlardagi kuylarni tinglash, qo'shiqlar kuylash ijodiy jo'shqinlikni, diqqat vaintizomni rivojlantirishga xizmat qialdi. Bu jarayonda o'quvchilarni musiqiy qobilyat iqtidorlari rivojlanadi ularda asta sekinlik bilan o'z musiqiy qobilyatlarini ko'pchilik oldida (bayram konsertlari, ko'rik tanlovlarda, madaniy ommoviy tadbirlarda) namoyish etish kayfiyati istagini vujudga keltiradi. Shuning uchun ham har bir musiqachi pedagog ishining yosh avlodni muvofaqiyatli o'qitish va kamol toptirish imkoniyatini yaratadigan hamda hozirgi muhim talablarga javob beradigan shakl, usul vositalarni izlab topish zarur.

Biz shunday uslublardan birini jamoaviy ijrochilik jarayonida qo'llanilishi borasida o'z tajribalariga to'xtalib o'tamiz.

Musiqa o'qituvchisi birinchi sinfda ilk mashg'ulotlardan o'quvchini musiqa tovushlarini eshitib unga o'z ovozi moslab ya'ni tegishli tovush balandligini aniq topib kuylay olish qobilyatini sinab ko'radi. Agar o'quvchi tovush toniga tusha olmasa falsh (noto'g'ri) kuylasa uni alohida ro'yhatga kiritib qo'yishi mustaqil va induvidial ishlash rejasiaga kiritib

qo'yish lozim bu o'rinda o'qituvchi o'quvchiga kamerton sotib olishni va o'zi bilan doim birga olib yurishini va tez tez ishlatib ovozini shunga moslashtirib yurishini taklif qiladi. Vaqt o'tishi bilan bola lya yoki do tovushini kamertonsiz kuylaydigan bo'ladi. Bitta tovushni aniq balandligini ichki hissiyot bilan toza eshitgan yoki kuylagan bola mazkur tovush yordamida aniqrog'i shu tovushga asoslanib boshqa tovushlarni ham topa oladi. Yoki ijro qilinayotgan asarning tonalligida bemalol kuylash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Undan keyingi jarayonlarda o'quvchilarni ichki eshitish yordamida bir ovoz yoki qo'shiqni bir ovoz partiyasi kuyini takror takror eshitib eslatib borishni yo'lga qo'yish qo'shiqni mazmuni va mavzusidan kelib chiqqan holda qaysi joyda baland qaysi joyda ichki ovozda kuylash o'quvchining malakasiga bo'g'liq bo'ladi. Albatta bu malaka to'liqsiz va uzliksiz, tinimsiz mashqlar hisobiga oshiriladi. Ohangning yoki tovushning aniq, toza kuylayotganligini birinchi bosqichlarda cholg'u sozi yordamida tekshirib boriladi.

Boshlang'ich sinfning keyingi bosqichlarida ushbu jarayon murakkablashtirib boriladi. Ammo ish uslubi o'zgarmaydi. Masalan o'qituvchi ikkinchi ovozni kuylaydi, o'quvchi esa fortepiano yoki o'zbek xalq cholg'usi jo'rligida birinchi ovozni kuylaydi. O'quvchi bir o'zi cholg'u jo'rligida birinchi ovozni kuylaydi. O'qituvchi cholg'u sozida asarni ma'lum qismini chalib beradi, o'quvchi uni so'zlari bilan nota yozuviga qarab kuylaydi. O'qituvchi asarni ma'lum qismini tonini eshittiradi, o'quvchi esa o'sha bo'lakni cholg'u jo'rligisiz kuylaydi. O'qituvchi asarni cholg'uda ikkinchi ovozini chaladi, o'quvchi birinchi ovozni kuylaydi. To'rtinchi sinfga borganda ushbu mashqlar yanada murakkablashadi. Ya'ni o'qituvchi asar kuyini milliy cholg'usida (bir ovoz, unisonda) chaladi, o'quvchi ikkinchi ovozni erkin kuylashga harakat qiladi. O'quvchilarda jo'rsiz (akapella) malakalari rivojlanadi.

Qo'shiq kuylashda tovushlarni eshitish, o'qituvchi ovoziga ergashib kuylash, o'rtoqlarini ijrosini eshitish ansanbillikni his etish eng muhim omillardan hisoblanadi. O'qituvchi o'quvchilarda mana shunday ko'nikmalarni qaror topishiga harakat qilgan holda mashqlar tanlashi va jamoaviy kuylash jarayonida ulardan maqsadli ravishda foydalanib borishiga to'g'ri keladi. O'quvchilar bilan ishlash jarayonida oldin qabul qilingan ta'surotlar hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosan xotira va tafakkur yordamida musiqa tovushlarini va obrazlarini ichki va hayolan tasavvur qilishni, his qila olishi bilan belgilanadi. Bular o'z navbatida ichki elementning natijasi bo'lib ichki eshitish qobilytiga ega bo'lgan o'quvchilar ilgari eshitgan tovush yoki notani saqlab qoladi. U asarning garmoniyasi alohida ovozlari, cholg'u tovushlar tembrini hayolan tasavvur qiladi. Bularning barchasi ohir oqibatda o'z yo'lida musiqiy xotira, diqqat, musiqiy did va qobilyatlar majmuini rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Musiqa darslarida o'qish jarayonining asosiy malakalaridan biri boshqacha qilib aytganda shunday tovush "tasavvuri"ni yaratish kerakli u o'quvchining ongiga mustahkam joylashib qo'shiq ijrosi lad tonalligi kuy harakatlarini his etib kuylashiga zamin yaratsin.

Musiqa tovushini yoki musiqiy asarni yahlit holda ichki eshitish qobilyati musiqachining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Uni rivojlantirish uchun o'qituvchi oddiylikdan murakkablikka pogónama-pogóna doimiy ravishda ish olib borishi lozim. Ichki eshitish qobilyati faqatgina muntazam mashqlar ustida ishlash yo'li bilan rivojlanadi va mustahkamlanadi.

O'quvchilarni tashqi eshitish qobilyatini rivojlantirish uchun quydagi birqancha mashqlar tavsiya etiladi.

1. O'quvchilar diqqati bir tovushga qaratiladi fortepiano yoki cholg'u sozida birinchi oktavaning bir tovushlarida re, me, fa, sol, lya, si chalinadi. O'quvchiga tovushni diqqat bilan yinglash uqturiladi. Tovushni o'qituvchi nota nomi, biror bir so'z bo'g'ini bilan kuylaydi. So'ngra o'quvchini o'zi

bilan kuylashga taqdim etiladi. Bu mashqlar bir necha bor takrorlanadi. Shunengdek birinchi marta shunday usulda boshqa tovushlarni tinglab o'rgatish amalgam oshiriladi. Bunday mashqlar natijasida diqqat bilan tinglangan tovush o'quvchida quloqqa yaxshi singadi, o'quvchini xotirasiga o'rnatiladi. O'quvchi eshitgan tovushni yaxshi tushinish qobiliyati rivojlanadi.

2. Aytib o'tilgan usulda ikki tovushni tinglab aniqlash shu jarayonda major uchtovushligini minor uch tovushligidan farqlash, ajratish, farqlash hissiyotlari rivojlantiriladi. Ikki tovushni eshitganda ularni ohangdoshligi ya'ni yoqimli yoqimsiz eshitilishiga diqqat qaratiladi. Xosil qilingan ko'nikmalar umumlashtirilgan holda asta sekinlik bilan rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

3. Keyingi bosqichlarda o'quvchilarni notaga qarab tovushini barqaror tonallikda muhim ushlab kuylashi, varaqdan o'qib kuylash qobiliyatlarini rivojlanishiga diqqat qaratiladi bu usul ko'proq yuqori sinflarda beshinchi, oltinchi, ettinchi sinflarda yanada yuqoriroq murakkablikda davom ettirishi mumkin. Bunda ikki o'quvchi ikki ovozli qo'shiq yo'li (melodiya)ni kuylashi yoki jo'rsiz (akapello) asarni ijro etishlari mumkin. O'quvchilar asarni ijro qila turib, goh birinchi ovozni kuylaydi goh ikkinchi ovozni va shu bilan birga goh baland ovozda kuylaydi, goh ichki ovozda kuylaydi. Asarni kuylayotgan paytda uning partiyasiga qarab kuzatib tinglashning foydasi ham katta bo'ladi. Tinglab kuzatishni o'quvchi jamoa bo'lib kuylash faoliyatida bajarishi yanada yaxshi samara beradi. Chunki asarni qism qismlarga, frazalarga bo'lib-bo'lib bir necha marotaba qaytarib o'rganiladi o'quvchi bunda aniqroq eshitish va eshitganini to'laroq tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun uzliksiz mashq qilib borish lozim. Shundagina ular har qanday musiqa asarini bemalol ijro eta oladigan zarur malakalarni o'zlashtirish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

III.BOB: Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va mustaqil ishlashning pedagogik samaradorligi.

3.1. Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan bolalar bilan individual va musataqil ishlash texnologiyasini ta'lim jarayoniga tadbigi.

Musiqiy qobiliyati sust rivojlangan o'quvchilar bilan individual va musataqil ish olib borish orqali ularni sinflardagi "ilgor" hisoblanish o'quvchilar qatoriga olib chiqishga yo'naltirilgan amaliy tajribalar jarayonida yo'naltirilgan maktablarning boshlangich sinflarda bu yo'nalishdagi ko'pgina musiqa o'qituvchilari faoliyatini tajribalarini o'rganishga e'tibor qaratildi. Ilmiy uslubiy adabiyotlarda bayon etilgan tadqiqiy ishlar orqali dalillangan va ilgari surilgan tavsiyalar qo'llanilgan ish usul shakllari vositalarni amalda sinab ko'rish natijalarini kuzatilgan tajribalar bilan taqqoslash yangi hulosalar chiqarish va yanada samarali ish usullarini ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa mashg'ulotlari amaliyotini kuzatish musiqa o'qituvchilarining qobiliyati turli darajadagi o'quvchilar bilan ishlash boyicha faoliyatini o'rganish erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida musiqiy qobiliyati sust rivojlangan o'quvchilar bilan individual va musataqil ish olib borishni quydagi tartibda amalgam oshirish maqsadga muvofiq kanligiga ishonch hosil qilindi va ular amaliyot uchun tavsiya etildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa mashg'ulotlari amaliyotini o'rganish o'quv materiallari mazmuni; mavzular bilan shuningdek musiqiy faoliyatlar jarayonidagi o'quvchilar bilan yalpi tarzda ayrim o'rinlarda individual differentsial guruhlarga bo'lib ishlash musiqali topshiriqlar berish ijrosini nazorat qilish, rag'batlantirish ko'zlangan maqsadga erishish imkonini beruvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

O'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirish borasidagi sayi harakatlar qoy'dagicha usul va vositalarga tayangan holda ish tutish bir qadar samaradorlik kasb etishini ko'rsatdi.

1. Musiqa tinglash qo'shiq kuylash ayrim mashq va harakatlarni bajarish davomida o'quvchilar diqqatini bir nuqtaga jamlab o'qituvchining so'zi, tushuntirish amaliy ko'rsatmalarini ongli idrok etishlariga ko'rsatish

2. O'quvchilarni o'rganilayotgan musiqa asariga qiziqishlarini uygotish, qiziqarli suhbat, oyin, raqs, ritmik harakatlar, ko'rgazmali, texnik vositalardan o'z o'rnida va o'rinli foydalanish.

3. O'qituvchi ovoziga, musiqa cholg'siga ergashib kuylash, o'rtoqlari ovozini eshitib o'z ovozini ular ovoziga moslab kuylashlariga doimiy e'tibor qaratish.

4. Bitta tovushni turli pardada barqaror "ushlab" (cho'zib) kuylab turishiga o'rgatish

5. Tayanch tovushlarni aniqlay olish, his etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

6. Aniq intonatsiyaga erishish diktsiya tozaligini taminlash .

7. O'z ta'surotlarini ifodalay olish asarlarini baholash farqlash, munozara va muhokama qilishda faol ishtirok etishga o'rgatish.

8. Ohagni "imitatsiya" qilish, musiqa karakterini to'g'ri anglay olish va shunga mos tovush hujumi" ni qo'llay olish harakatlarni moslashtirish.

9. O'z ijrosini baholash, dirijiorlik ishoralariga rioya etib kuylash, dinamik belgilarni tushunib, ijroda ifoda eta olish ko'nikmalarini hosil qilish .

10. O'z usida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Tajriba sinov ishlari davomida musiqiy qobilyati sust bo'lgan o'quvchilarni mana shu mezonlar asosida musiqiy qobilyati va iqtidorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv- tarbiyaviy ishlar tizimli asosda yo'lga qo'yilgan .

O'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba sinov ishlari uchun tajriba maydonin sifatida Samarqand shaxridagi 24,29 sonli umumta'lim maktablari tanlandi. Ushbu maktablarni boshlang'ich sinflaridan to'rttadan : bitta birinchi, bitta ikkinchi, bitta uchunchi , bitta to'rtinchi sinflar va ularda ta'lim olayotgan 256 nafar o'quvchi tajriba sinovlarida sinaluvchi sifatida jalb qilindi .

Tajriba sinov ishlari uchun ishlab chiqilgan mahsus dastur asosida olib borilgan ma'lum muddatdagi amaliy mashg'ulotlar davomida musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalarni yuqoridagi me'zonlar asosida bilim, ko'nikma, malakalarini quydagicha uch ko'rinishda darajalarda ifodalash ma'qul deb topildi.

I. Yuqori daraja ishlab chiqilgan 10 ta me'zonlar asosida bilim, ko'nikma, o'zlashtirishlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganligi va bu o'zgarishlar 50% dan yuqori natijaga to'g'ri keladi db baholaganlar.

II. O'rta darajada o'quvchilarning musiqiy qobilyatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi me'zonlar doirasidagi bilim ko'nikma va malakalarini 25-30% darajada shakllangan deb topilganlar.

III. Past daraja baholash ko'rsatkichlarida deyarli o'zgarish bo'lmagan, aniqlovchi savollar, amaliy topshiriqlarni 10-20% atrofida namoyon qilaganlar.

Respondent o'quvchilarning musiqiy qobilyatlarini rivojlanganlik darajasi yuqorida qayd etilgan 10ta me'zonlar asosida aniqlandi.

Ushbu ishlar jarayonida umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirish uchun tanlangan ish usullari va amalgam tadbiiq etish holatlari hisobga olindi. Qo'llanilgan ish usullari orqali o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlanganligini o'sib borish dinamikasini ishlab chiqilgan me'zonlar asosida kuzatib borishiga asosiy e'tibor qaratildi. Shu jarayonda o'quvchilarni qo'shiq kuylash, musiqaga mos harakatlar bajarish bolalar cholgu asboblarida ijro etish


nazariy qoidalarni eslab qolish ko'nikmalari va malakalaridagi o'zgarishlar sinchkovlik bilan kuzatib borildi.

Tajriba kuzatuvchilarimiz davomida samarali deb topilgan ish shakl usul va vositalari o'quvchilarni umumiy musiqiy madaniyati, ma'naviy kamoloti, estetik did va ehtiyojlariga ham ijobiy ta'sir etish kuzatildi. Shuning uchun ham tadqiqot maqsadini amalga oshirish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur va tavsiyalarimizni tajriba maydoni sifatida tanlangan maktab musiqa madaniyati darslarida shunengdek musiqa san'atiga doir badiiy havaskorlik to'garaklarida qo'llanilishiga ham e'tibor qaratdik. Oradan ma'lum vaqt o'tkach biz tomonimizdan tavsiya etilgan o'ziga hos metodika ya'ni ish shakl usullari musiqa mashg'ulotlarida o'quvchilarni musiqiy qiziqishlarini oshib borishida darslarda faol ishtirok etayotganligi savol berish, javob berishga intilishi o'zini namoyon qilishga bo'lgan faolliklarini oshganligida ijobiy samara berayotganini guvohi bo'ldik.

Tajribalar davomida o'quvchilar bilan haftasiga ikki marta mustaqil qo'shimcha mashg'ulotlarni yo'lga qoydik. Qo'shimcha mashg'ulotlarda o'quvchilar bilan ular hohish istagiga ko'ra qo'shiq o'rganish, kuylash, musiqa tinglash, tahlil qilish, o'quvchilarni ayrim cholg'u asboblarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari doirasida olib boriladigan o'quv – tarbiyaviy ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Mashg'ulotlar jarayonida asta sekin ularga qatnashish istagini bildiruvchi o'quvchilar soni ortib bordi. (1- digramma)

1-diagramma

Musiqa boyicha mustaqil mashgulotlarga qatnashuvchilar sonini ortib borganligini ko'rsatuvchi shaklning



Bu holat ham bizning amaliy tajribamiz samarali kechayotganligidan darak berar edi. Musataqil mashgulotlar jarayonida o'quvchilar musiqa sanati boyicha o'zlarining qiziqtirgan savaollarga javob olishdi, qo'shimcha qo'shiqlar o'rganishdi turli bayram tadbirlari, madaniy-ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik doirasida ham ma'lum qismlarni bajarib borishdi.

Shulardan kelib chiqqan holda amaliy tajribalarimizni asosiy shakllantiruvchi bosqichida biz tajriba sinflari o'quvchilarini musiqa sanatini turli sohalariga qiziqishlarini o'rganib bordik. Shu yo'nalishlar boyicha o'z qobilyat va iqtidorlarini namoyon qilishlari o'z usida ijodiy

va qo'shimcha ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga erishdik. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish o'quv yuklamalari o'quv dasurlaridagi mavzular (har bir dars faoliyati musiqa savodi, musiqa tinglash, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash) yani yil va chorak mavzulari mazmuni bilan bog'liqlikda har bir o'quv haftasida, oylik, yillik hajmda tashkil etildi. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni eng muhim ahamiyatli tomoni darsda o'quvchi eng avvalo mavzu boyicha zarur bilim tushunchalarni o'quvchilarga etkazishga asosiy diqqatini qaratadi. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy qobiliyati uquvi bo'sh bolalar bilan ishlashga ajratadigan vaqti ham kerakli samaraga erishish imkoniyatini biz kutgan darajada berolmaydi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar mana shu kamchilik o'rnini to'ldirishda boyitish, samarali kuchini ta'minlashda munim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham biz o'zimizning ommaviy tajribalarimiz davomida darsdan tashqari mashg'ulotlar imkoniyatidan unumli foydalanishga mashg'ulotlar rejalari, mavzularini har bir sinfga alohida-alohida tuzib olib, har bir o'quvchini individual, psixologik, fiziologik, imkoniyati musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini aniq hisobga olgan holda olib bordim. Dars va darsdan tashqari faoliyatda olib borilgan mashg'ulotlar uzviyligi aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarimizni samarali eichim topishini taminladi.

3.2. Individual va deferensial guruhlariga bo'lib ishlash samaradorligi yuzasidan tajriba –sinov ishlari.

“Musiqa madaniyati” darslarini o'tilishida boshlang'ich sinf o'quvchilarini musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish , ayniqsa musiqiy uquvi bo'sh bolalarni amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarni sinf kesimida “tenglashtirish” maqsadida olib boriladigan mashg'ulotlar dars va darsdan tashqari faoliyatlarda aniq maqsad va reja asosida tizimli olib borilgandagina kutilgan natijaga yerishishi imkonini beradi .

Bunga biz o'zimiz ishlayotgan va tajriba sinov ishlari maydoni sifatida tanlangan bir necha maktabda musiqa darslarini kuzatish va ushbu maktablarda bir yil davomida olib borilgan tajriba sinov ishlari jarayonida to'la ishonch hosil qildik.

Tajriba sinov ishlarimizni olib borish uchun yuqorida aytib o'tganimizdek xalq ta'limi bo'limiga qarashli N24-sonli va N29-sonli maktablar tanlandi. Ulardan N24-sonli maktabning 1-2-3-4- sinflari tajriba sinfi sifatida N24-sonli maktabning 1-2-3-4-“A” sinfi nazorat sinfi sifatida olindi.

Tajriba sinov ishlarini boshlanishidan oldin ikkala sinfda o'tiladigan musiqa ma'lumotlari o'qituvchining darslarini dastur talablari asosida o'tilishi musiqiy faoliyatlarini tashkil etish o'quvchilarning musiqa darslariga qiziqishlari, munosabatlari, bilim va malakalari darajalari har tomonlama o'rganib chiqildi shundan so'ng o'quvchilarni defersial guruhlarga bo'lib hamda ular bilan individual tarzda ish olib borishning bolalar musiqiy qobiliyat, kuylash, vokal xor malakalarini rivojlanishining qay darajada ta'sir etishini aniqlash o'quvchilarni musiqiy estetik qobiliyati (ovozi tonga tushishi, balandliklarni eshitib kuylash, o'z ijrosini nazorat qilish) musiqiy xotirasi (musiqa aytim yo'lini tez o'zlashtirish, yodda saqlab qolishi, enterval okkordlarni tonga, sof intonatsiya qilish) shunengdek ovoz hosil qilish va ovoz tembrda yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar aniqlab olindi.

- mashq, gamma va qo'shiq kuylashda ovozlarni sof unisonda jaranglashi;
- musiqani harakterini his etib, dinamik belgilarga rioya etib, o'qituvchi ovozi, musiqa soziga ergashib kuylash;
- dirijiorlik ishoralariga muvofiq kuylash, ritm –tempdan chiqib ketmasligi
- o'qituvchi ko'rsatmalari va talablarni yodda saqlab qolishlari, asarni yoddan kuylay olishlari e'tiborda tutiladi.

Tajriba sinov ishlarimizni dastlabki bosqichda ishimiz oldingi paragraflarida ko'rsatib o'tilgan asosida tanlangan mezonlar ikkita sinf o'quvchilarini “jamoaga bo'lib kuylash” faoliyatidagi o'zlashtirish

ko'rsatkichlari bir necha darslarni kuzatish va ularni tahlil qilish bo'yicha chiqarilgan hulosalar asosida aniqlandi. Natijalar, umuman olganda quvonarli emas yedi. O'quvchilar kuylayotganlarida musiqani yaxshi emotsional, qichqirib kuylashlar, dinamik belgilarga rioya etishmas ayrim o'quvchilarni ovozi tonda turmas edi. Dars "rubob" cholg'usi jo'rnavozligida o'qituvchi ham chalib, ham dirijiorlik qilishga qiynalar, bolalar ovozini ham to'liq nazorat qilolmas edi. Sinfdagi o'quvchilarning 30-40% astoydil intilib kuylashga, o'qituvchi ko'rsatma va talablarini to'g'ri bajarishga harakat qilishar edi. Bu esa;

- umumta'lim maktablarida musiqa darslarini o'tilishi standart talablari darajasida emasligini ko'rsatar edi.

-Musiqa darslari uchun haftada bir soatlik kutilgan natijaga erishish imkonini bermasligini, bir hafta davomida o'quvchilar darsda o'rganganlarini kelgusi darslarga ko'pchilik qismini unutib qo'yishlariga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatar edi.

Shunengdek, o'qituvchilarni ham musiqa o'qitish metodlaridan etarli malaka va tajribaga ega emasliklari sezilib turar edi.

Shulardan kelib chiqqan holda tajribalarimizning asosiy (shakllantiruvchi) bosqichida tadqiqotimiz maqsadini amalga oshiruvchi vazifalarni bajarishga kirishdik. Tajriba sinfi sifatida olingan maktab (N24- sonli maktab 1-2-3-4- sinfi) ning tanlangan sinfida o'quvchilarni deferentsial guruhlarga bo'lib, hamda musiqiy qobilyati nochor bolalar bilan induvidial mashg'ulotlar olib borishga kirishdik. Sinfdagi 9 ta o'quvchini "musiqiy uquvi bo'sh" bolalar sifatida tanlab olishdi va ular bilan kun ora har biri bilan 15-20 daqiqadan ovozlarni musiqaga tushirish, musiqa tovushlarini eshitish, eshitib kuylash, ritmni, tempni his qishi, dinamik ishoralarga rioya qilishi, o'qituvchiga ergashib (taqlid qilib) kuylash bo'yicha tizimli mashg'ulotlar olib borildi. Sinfda dars jarayonida o'quvchilarni deferentsial guruhlarga bo'lib o'qituvchilarni kuylashlaridagi farqlarni, kamchiliklarni ko'rsatib darsda faol qatnashgan talabalarni o'rnak qilib hatto "qobilyatli"

o'quvchilarni "qobilyati past" o'quvchilar bilan yonma-yon o'tqizib qo'yib mashg'ulotlar olib borildi.

Ishimizni ijobiy jihatlar va tizimli ravishda olib borilgan mashg'ulotlar tez orada o'z samarasini bera boshlaganligini quydagi holatlarda ko'rishga muvofiq bo'ldik;

1. O'quvchilarni darsga faolligi sezilarli darajada oshdi;

2. Musiqani diqqat bilan eshitish va musiqa sozi, o'qituvchi va o'rtoqlarining ovozlari ergashib kuylashiga harakatlari ancha kuchaydi.

3. Ortiqcha qichqirib, tartibsiz kuylash holatlari keskin kamaydi.

3 oyga yaqin davom etgan shu yo'sindagi mashg'ulotlardan so'ng, biz qo'llagan usullarni samaradorligini aniqlash yuzasidan nazariy va amaliy sinov ishlari o'tkazildi. Sinov natijalari yuqorida bayon yetilgan 10ta mezonlar asosida tahlil qilindi.

Tajriba va nazorat guruhlaridagi ko'rsatkichlarning natijasi quydagicha ko'rinish oldi. (1-va 2- jadvallar).

O'quvchilarni musiqiy qobilyat va qiziqishlarini shakllanganlik darajalari.

(tajriba sinov oldidan)

1-jadval

Darajalar				
Guruhlar	Talabalar soni	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba sinfi	130	11,31%	36,6%	52,1%
Nazorat sinfi	126	12,9%	38,5%	48,6%

Olingan natijalar esa dastlabkisidan ancha yuqori ko'rsatkichlarni berdi va biz rejalashtirilgan mezon darajaga yaqinlashtirildi. Bunda musiqiy

qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan ishlash jarayonini samarali kechishi ta'minlash uchun o'ziga hos pedagogik yondashuv, texnologiya, mustaqil ishlash bo'yicha amalgam oshirilgan turlari o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'quvchilarni 50% dan ko'progida yuqori va o'rta ko'rsatkichlarga erishildi. Shunday qilib o'quvchilarni musiqiy eshituvi, diqqati, xotirasi, idrok etishi, musiqiy didi, estetik tarbiyalanganlik darajalarida o'sish paydo bo'ldi.

Keltirilgan natijalar tadqiq qilinayotgan tayyorgarlik darajasining mazkur bosqichga belgilangan darajada yaqinlashganidan dalolat beradi. Tajriba yakunida o'quvchilarni musiqiy uquvi, o'quv materiallarini o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari tajriba guruhida 88,95 ga etganligini ko'rsatdi.

Musiqiy qobilyati sust rivojlangan o'quvchilarning musiqiy uquvi bilim, ko'nikmalarini shakllanganlik darajalari.

(tajriba –sinovdan keyin)

Darajalar				
Guruhlar	Talabalar soni	Yuqori	O'rta	Past
Tajriba	130	39,8%	49,1%	11,1%
Nazorat	126	10,9%	42,3%	46,8%

1-va 2- jadvallar natijalariga asoslangan holda o'quvchilarning musiqiy bilim, amaliy ijrochilik malakalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlash yuzasidan tajriba boshidagi va yakunidagi natijalarni aniqlash yuzasidan tajriba boshidagi va yakunidagi natijalarni aniqlash bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlarni yuqoridagi mezonlar bo'yicha matematik statistika metodik tahlil etildi. Hisoblash qulay bo'lishi uchun biz 256 nafar o'quvchi bilan o'tkazilgan sinov natijalarini ko'rib chiqdik. Shundan 130 nafar o'quvchi tajriba guruhida va 126 nafar o'quvchi nazorat guruhlarida ishtirok etishdi.

Masalaning qisqacha mohiyati qoʻydagilardan iborat; Ikkita bosh toʻplam berilgan boʻlsin. Biri oʻquvchilarning ilmiy tajribagacha boʻlgan davrdagi bilm. Koʻnikma va malakalaridagi oʻrtacha ballari, ikkinchisi esa oʻquvchilarning tajriba ohiridagi bilm, koʻnikma malakalarining oʻrtacha ballari. Baholar meyoriy taqsimotiga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz oʻrinlidir, chunki miyoriy taqsimotiga yaqinlashish shartlari sodda boʻlib, ular bajariladi.

1-va 2 jadvallar asosida tajriba va nazorat guruhi oʻzlashtirishlari samaradorligini koʻrsatuvchi H_1 gepoteza va unga zid boʻlgan H_0 gepotezani tanlaymiz. Shundan soʻng tajriba boshidagi va ohiridagi tajriba va nazorat guruhlaridagi natijalarni umumlashgan holda qoʻydagi jadvalda aks ettiramiz.

Musiqiy qobilyati sust rivojlangan balalarning musiqiy bilm, koʻnikma va malakalari rivojdagi ijobiy oʻzgarishlar darajasi koʻrsatkichlari.

3- jadval.

	Guruhlar	Oʻquvchilar soni	Koʻrsatkichlar		
			yuqori	Oʻrta	Past
Tajriba sinovdan oldin	Tajriba	130	15	48	67
	Nazorat	126	16	49	61
Tajriba sinovdan keyin	Tajriba	130	52	64	14
	Nazorat	126	14	53	59

Ushbu natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil orqali, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan oʻrtacha kvadratik chetlanish, tanlanma despersya, variatsya koʻrsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Parsonning muvofiqlik kreteriyasi va ishonchli chetlanishlari topildi.

X	Y	S_x^2	S_y^2	V	V_y	T_{xy}	K	$\bar{X}_{n,m}^2$	Δ_m	Δ_k
2,29	1,64	0,4259	0,4504	28,5	40,9	7,85	253,51	50,65	0,1	0,12

Natijalarda tajriba va nazorat guruhlari uchun Neyman góyasi asosida ishonchli intervallari topildi.

$$\bar{X} - tkp \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + tkp \cdot \frac{S_x}{\sqrt{n}}$$

$$2,29 - 0,1 \leq a_x \leq 2,29 + 0,1$$

$$2,29 \leq a_x \leq 2,39$$

$$\bar{Y} - tkp \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + tkp \cdot \frac{S_y}{\sqrt{n}}$$

$$1,64 - 0,2 \leq a_y \leq 1,64 + 0,12$$

$$1,52 \leq a_y \leq 1,76$$

Olingan natijalardan tajriba sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum

$$\bar{X} = 2,29; \bar{Y} = 1,64; \Delta_x = 0,1; \Delta_y = 0,12 \text{ gat eng.}$$

Bunday sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{usb} = \frac{\bar{x} - \Delta_x}{y + \Delta_y} = \frac{2,29 - 0,1}{1,64 + 0,12} = \frac{2,19}{1,76} = 1,24 > 1;$$

$$K = (\bar{x} - \Delta_x) - (\bar{y} - \Delta_y) = (2,29 - 0,1) - (1,64 - 0,12) = 2,19 - 1,52 = 0,67 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligini va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagilarga nisbatan yuqori ekan.

Bularni barchasi biz olib brogan tadqiqot izlanishlar behuda ketganligini, tadqiqot maqsadi ijobiy echim topganligini tasdiqladi. O'quvchilar bilan induvidial va sinf hamda sindan tashqari faoliyatda ish olib borish ijobiy samaradorlikka ega bo'lib, ularni umumta'lim maktablari musiqa ta'lim tarbiyasida izchil ravishda qo'llash yaxshi natijalarga erishish imkonini berish amaliy tajriba- sinov ishlari orqali o'z isbotini topdi.

2-jadval ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, biz olib brogan ish uslubimiz, ya'ni metodikamiz muvofaqiyatli bo'lganligi va samaradorlikka

ega ekanligini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida deyarli o'zgarish (ijobiy tomonga) bo'lmagani holda, biz ish olib borgan tajriba guruhida, aksincha "a'lo" 3ta "yaxshi" lar 8tadan 16taga ko'pyganini, qoniqarlilar 16 tadan 13taga kamayganini va eng muhimi "qoniqarsiz" lar ya'ni "musiqiy uquvi", "qobilyati" qoniqarsiz baholashgan o'quvchilr soni 10tadan 2ta tushgani (8tag kamaygani) biz olib borgan isharni behuda ketmaganligini, tadqiqotimiz maqsadini ijobiy echim topganligini tasdiqladi. O'quvchilar bilan induvidial va ularni sinfdagi dars jarayonida deferensial guruhlariga bo'lib ish olib borishi musiqa ta'limida samaradorlikka ega ish uslubi bo'lib, ularni umumta'lim maktablari musiqa darslarida izchil ravishda qo'llash yaxshi natijalarga erishishi imkonini berishi amaliy tajriba – sinov ishlari orqali isbotlandi.

UMUMIY XULOSALAR

Respublikamizda yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berayotgaligi, eng avvalo ta'lim mazmunini modernizatsiya qilinishi, uni yangi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish, ta'limni barcha bo'g'inlarida ta'lim tarbiya ishlari uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Ma'lumki, respublikamizdagi mavjud ta'lim tizimi sirasida umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda barcha fanlar qatori musiqa madaniyati fanini o'qitish ishlarini davr talablari darajasida doimiy ravishda takomillashtirib borishga ta'lim oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtma sifatida qarashi o'rinlidir. Zero, musiqa ta'limi jarayonida o'quvchi yoshlarni badiiy estetik va ma'naviy etuk qilib tarbiyalashning keng imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda musiqa ta'limiga ajratilgan o'quv soatlarini haftaligi bir soat hajmida bo'lishligi, dastur va darsliklardagi o'quv materiallarini to'liq o'zlashtirishlarida bir qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi maktabda musiqa bo'yicha sinf va sinfdan tashqari ishlarni uzviy uyg'unlikda olib borish vazifalarini ko'ndalang qo'yimoqda. Chunki, musiqa darslarida o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini turli darajada rivojlanganligi musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazishda bu jarayon eng maqbul yo'l bo'lishini bizning pedagogik kuzatuvlarimiz ham tasdiqlaydi.

Musiqiy qobilyatlar rivojlanishida shaxsni qanday muhitda o'sib uyg'onganligi, musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi, to'g'ri tarbiya, qolaversa irsiy xususiyatlar ham muhim o'rin tutadi. Musiqiy qobilyatni rivojlanganlik eng avvalo, o'quvchilarni musiqiy eshituvda (musiqiy sluh) yaqqol namoyon bo'ladi.

Musiqiy eshituv qobilyatini rivojlantirishda o'qituvchi musiqa o'qitish nazariyasi va amaliyotida mavjud ish tutish usullaridan o'z o'rnida va unumli foydalanishi, qunt bilan ish olib borishi kerak bo'ladi.

Biz o'zimizning ushbu tadqiqot borasida olib brogan ilmiy izlanishlarimiz natijalariga tayangan holda quydagi hulosalarga keldik;

1.asosiy vazifa- o'quvchilarni ovozini tonga tushishi, asar tonalligiga ovozini sozlashi va musiqani eshitib unga sozlanib kuylashiga erishish;

2.Jo'rnavozlik qilishi, asarni idrok qilishi asar harakterini his qilib kuylashga erishish;

3.O'quvchilarni nazariy mashg'ulotlarni tushunib, anglagan holda amalgam tadbiiq eta olish uquvi va ko'nikmasini shakllantirish;

4.Musiqiy eshituv, xotira, asar mazmuni va mohiyatini to'g'ri anglash, tushinish va unga o'z munosabatini bildira olishi malakalarini shakllantirib borish;

5.Musiqiy qobilyatlar o'zida qo'ydagi hususiytalarni namoyon etadi;

-musiqiy idrok, xotira, diqqat, tafakkur,

-musiqaning nazariy va amaliy ijrochilik tizimi, o'z-o'zini nazorat qilish, boshqaarni eshitish, xislatlarini tarbiyalash;

-o'quvchilarni o'z ustida mustaqil ishlashi ko'nikmalarini shakllantirish

-nazorat ishlari olib borish va uyga vazifa berish.

6. Musiqaga oid nazariy bilim va amaliy malakalr asosida o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirishga muntazamlilik tamoyili asosida yondashish, o'quvchi bilan induvidial va mustaqil ishlash, amaliy mashqlarni doimiyligiga erishish bu jarayonni samaradorligiga erishishda muhim omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov. “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. 2-tom T.:O'zbekiston, 1996-yil 379-bet.
2. I.Karimov Bunyodkorlik yo'lidan 4-tom T.O'zbekiston.: 1996 379-bet.
3. I.Karimov “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz”. 7-tom T.:O'zbekiston 1999-yil 413-bet
4. I.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” T.: Ma'naviyat 2008-yil
5. I.Karimov “Zamonaviy kadrlar tayyorlash isloxotlar muvaffaqiyatining asosi”. Ma'rifat 1998,25-yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni ,“ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ma'rifat 1998-y 1-aprel
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida farmoni. O'zbekiston ovozi 1995-yil 21-oktyabr
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi. Bolalar musiqa san'at maktablarining moddiy – texnik bazasini mustaxkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi. Toshkent, Ma'rifat, 2008-yil 7-yanvar.
9. Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limi va tarbiyasi konsepsiyasi. Toshkent XTB 1995-yil.
10. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi. Musiqa. Ta'lim taraqqiyoti, maxsus 6-7-sonlari 199-yil.
11. Akbarov I.A “Musiqa lug'ati” T.: O'qituvchi, 1987-yil.
12. Akramina O'.A. Metodika muzikalnogo vospitaniya v shkole. M., prosveshyeniye, 1983-yil.
13. Baxromeyev V.A “Musiqaning elementar nazariyasi”. T.: O'qituvchi, 1974-yil.
14. Axmedov M. O'qituvchilarda musiqiy nazariy bilimlarni shakllantirishda “Garmoniya kursi”ning pedagogik imkoniyatlardan foydalanish. Falsafa va xuquq – T.: 2010 №2, 55-bet

15. Axmedov M “Musiqqa madaniyati” fani o’qitilishidagi dasturiy ta’minot. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash: Muommolar, yechimlar. – T.: O’z PITI. 2010-y 141-144-bet.
16. Soipova D.Yu Musiqqa madaniyati fani o’qituvchisiga qo’yiladigan asosiy talablar. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. – T.: O’z PITI, 2004-yil 233-238- betlar.
17. Soipova D.Yu. Musiqiy va musiqiy nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish. O’quv qo’llanma fan va texnologiyalar markazi bosmaxonasi. T.: 2005-yil
18. Soipova D.Yu o’quvchilarga musiqiy madaniyatni shakllantirishga musiqiy nazariy konferensiya materiallari. UzMU-T-, 2005, 97-99-betlar.
19. Musiqqa o’qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. – T.: TDPU, 2000-yil
20. Solomonova T.Ye. (tuzuvchi). O’zbek musiqqa tarixi. – T.: o’qituvchi, 1981.122-bet
21. Fayzullayeva S.X. O’quvchi-yoshlarning estetik tarbiyasi-T.: o’qituvchi, 1979, 49 bet.
22. Estetik tarbiya asoslari N.A.Kushayev tahriri ostida. –T.: o’qituvchi, 1988. 269 bet.
23. Xasanov A.Sh. Musiqqa va tarbiya . –T.: O’qituvchi, 1993y. 193 bet.
24. Musiqqa 1-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2011-yil.
25. Musiqqa 2-sinf uchun darslik T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi o’zb. Nashriyot 2010-yil. Toshkent
26. Musiqqa. O’qituvchilar uchun o’quv qo’llanma. 2-sinf. –T.: G’.G’ulom 2008-yil
27. Musiqqa 3-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2010-yil
28. Musiqqa 4-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2011-yil.

29. Musiqa 5-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2007-yil
30. Musiqa 6-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent 2004-yil
31. Musiqa 7-sinf uchun darslik. T.: 2008-yil
32. Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik. –T.: O'qituvchi, 1997-yil
33. Gudkova Ye.A, Vasilyeva A.B “Ashula darsligi metodikasi” –T.: - O'qituvchi, 1973.
34. O.Fayziyev va boshqalar. O'zbekiston maktablarida musiqiy nafosat tarbiyasini tashkil etish. Metodik qo'llanma.-T.: Sharq, 1999y.
35. A. Munavvarov. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 1998y.
36. Axmedov M.M. bo'lajak o'qituvchilarni maktab o'quvchilarida musiqiy-nazariy bilimlarini shakllantirishga tayyorlash. Ped f. Nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Avtoreferat 2011-yil
37. Nurmatov X, Проблемы эстетического воспитания учащихся начальных классов узбекских песен на уроках музыки. Avtoreferat dne... nald. Ped nauk. T.: 1982 y.
38. Razzaqov I.R. Formirovaniye нравственных качеств личности учащихся IV-VII классов средствами музыки. Avtorefer.dis kond. Ped. nauk Toshkent, 1991 y.
39. Xasanov A.Sh. Vokalniy krujok kak sredstvo razvitiya i usovershenstvovaniya estheticheskogo vospitaniya uchashixsya 4-x klassov obshyebrazovatelnoy shkole Avtoref.dis kond.ped – nauk. Toshkent, 1978-19s.
40. Yu.Buluchevskiy, V.Fomin. Kratkiy muzikalniy slovar dlya uchashixsya-L.Muzika. 1988 y.
41. D.Ommonullayev, Sh.Yormatov va boshqalar. Birinchi sinfda musiqa darslar. Metodik qo'llanma. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1987 y.
42. R.G'.Qodirov, Boshlang'ich maktabda ko'p va ovozli kuylash. –T.: O'qituvchi, 1997y.

**A.Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim ” ixtisosligi magistratura bo’limi
Xollov Jasur tomonidan bajarilgan “Musiqiy qobilyati sust rivojlangan
bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash uslublari” mavzusida
dessertasiya ishiga ilmiy rahbarning**

Xulosasi

Umumta’li maktablarining “musiqa madaniyati ” darslarida o’quvchilarning qo’shiq kuylash, musiqa tinglash, nazariy bilimlarini o’zlashtirish bo’yicha musiqiy qobilyatlarini rivojlanganlik darajasi dars sifat va samaradorligini belgilovchi eng asosiy omil hisoblanadi.

Xollov Jasur tomonidan tadqiq etilgan magistrlik dissertasiyasida umumta’lim maktablari boshlang’ich sinflarida musiqiy qobilyati sust rivojlangan o’quvchilar bilan induvidial va mustaqil ravishda ish olib borishning pedagogik- psixologik va metodik jihatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Ishni bajarishda magistrant musiqiy qobilyat va uning namoyon bo’lishining nazariy, psixologik fizologik hususiyatlarini ilmiy adabiyotlarga tayangan holda yaxshi o’rgangan. Musiqiy qobilyatlarni rivojlantirish borasida to’plangan tajribalarni e’tiborga olgan holda ularni yangicha yondashuvlar bilan yanada boyitishga harakat qilgan.

Ishning birinchi bobida musiqiy qobilyatni musiqiy-amaliy ijrochilik faoliyatida eng muhim o’rin tutishi, musiqiy qobilyati, hususan musiqiy eshituvi sust rivojlangan bolalar ovozini tonga tushmasligi ularni kuylash ko’nikma va malakalarini egallashlarida jiddiy nuqson bo’lib, jamoaviy ijroni sifatiga salbiy ta’sir etishi amaliy misollarda tahlil qilingan.

Ishning ikkinchi bobida esa musiqiy qobilyatlar turlari, ularni rivojlantirishning o’ziga xos usul, shakl va vositalari va ularni dars jarayonida qo’llash mazmuni, amaliy ish tajribalari misolida yoritib berilgan.

Ishning diqqatga molik jihatlardan yana biri ushbu ish mazmunida ilgari surilgan fikr - mulohazalar, xulosa va tavsiyalar tajriba sinov ishlari natijalari orqali tasdiqlanganligidir.

Fikrlarimizdan mazkur dissertasiya tadqiqot ishi tamoman kamchiliklardan holi degan hulosaga kelib chiqmasligi lozim. Bizning nazarimizda musiqiy qobiliyati sust rivojlangan o'quvchilar bilan ishlashda amaliy mashqlar namunalari bilan birgalikda yanada yaxshi bo'lar edi. Shunga qaramasdan mazkur bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha "Nizom" talablariga mos holda bajarilgan tadqiqot sifatida baholash va himoyaga tavsiya etish lozim deb hisoblayman. Muallifni musiqiy ta'lim ixtisosligi bo'yicha magistr darajasini olishga loyiq deb bilaman.

Ilmiy rahbar:

dots. Qudratov. I

A. Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistratura bo’limi bitiruvchisi Xolov Jasurning “Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash uslublari ” mavzusidagidissertatsiyasiga

TAQRIZ

Umumta’lim maktablarining “musiqa madaniyati ” darslarida o’quvchilarni nazariy va amaliy bilm, ko’nikma va malakalarini o’zlashtirish jarayonidagi musiqiy uquvi, xotirasi, sluxi, (eshitishi) eng muhim jihatlardan hisoblanadi. Bu o’rinda ushbu qobilyatlarni turli o’quvchilardagi turli darajada rivojlanganligi o’qituvchi oldiga bir qator muammolarni ijobiy hal qilish vaziafasini qo’yadi.

Xolov Jasur tomonidan tadqiq etilgan “Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlsh uslublari” mavzusidagi dessertasiya ishi mazmunida asosan musiqa darslari jarayonida o’quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik va metodik yondashuvlar, ish shakl, usul va vositalari haqida so’z yuritiladi.

Bititruv ishi kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat tuzilishda bajarilgan. Ishning kirish qismida mavzu muammoning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti va kutilayotgan natijalar asoslangan. Ta’lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlanagn bolalar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik, psixologik asoslari deb nomlangan 1- bobida boshlangich sinf musiqa darslarida musiqa ta’limi va tarbiyasi maqsadi, vaziafalari mavjud dastur va darsliklarga tayangan holda qilingan. Shu asnoda musiqiy qobilyatlar rivojlaishining pedagogik – psixologik omillari yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Ta’lim jarayonida musiqiy qobilyati sust rivojlanagan bolalar bilan ishlash mazmuni” degan ikkinchi bobida o’quvchilarni musiqiy qobilyatlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatda amalga oshiriladigan ish shakl va usullari va ularning samaradorlikka molik jihatlari ochib berilgan.

Dessertasiyaning uchunchi bobi “Musiqiy qobilyati sust rivojlangan bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlashning pedagogik samaradorligi” deb nomlanib uning mazmunida musiqiy qobilyati sust bolalar bilan ishlash boʻyicha taqdim etilgan ish shakl usul, vositalarni aniqlash yuzasidan oʻtkazilgan tajriba sinov ishlari va uning matematik statistik tahlili oʻz ifodasini topgan.

Taqdim etilgan ish usuli va vositalarini samaradorligi tajriba-sinov ishlari natijalari bilan tasdiqlanganligi, ushbu tadqiqot maqsad va vazifalarini toʻgʻri qoʻyilganligi va ijobiy echim topganligini isbotlaydi. Bu esa oʻz navbatida muallifni ishni bajarishga oʻziga hos ilmiy yondashganligi va uni muvofaqiyatli yakunlashga erishganligini bildiradi.

Ishda ayrim juziy kamchiliklar boʻlishiga qaramasdan uni ochiq himoyaga tavsiya etishga loyiq deb baholash mumkin deb hisoblayman.

Professor :

Ergashev A.

**A. Navoiy nomli SamDU “Musiqiy ta’lim” yo’nalishi magistratura
bo’limi bitiruvchisi Xollov Jasurning “Musiqiy qobilyati sust rivojlangan
bolalar bilan induvidial va mustaqil ishlash uslublari ” mavzusidagi
dissertatsiyasiga**

TAQRIZ

Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarining muvofaqiyati ko'p jihatdan o'quvchilarni umumiy musiqiy tayyorgarliklari darajasi va musiqiy qobilyatlarini ma'lum darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Musiqiy qobilyatlarni turli darajada va keskin tafovuti ayniqsa musiqani tinglash, qo'shiq ijro etish, eslab qolish, sezish, tasavur qilish jarayonida o'zining salbiy ta'sirini namoyon qiladi. Bu esa ushbu faoliyatga o'qituvchidan nihoyatda sezgitik, ma'suliyat va o'quvchilarga psixologik va metodik yondashuvlarni talab etadi.

Xollov Jasur tomonidan bajarilgan dissertatsiya mazmunida umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida musiqiy qobilyati sust rivojlanagan o'quvchilar bilan ish olib borish, ularni musiqiy qobilyatlarini rivojlanishiga yordam beruvchi ish usuli va shakllari, ularning mazmun – mohiyati atroflicha tahlil qilingan. Bu o'rinda asosiy e'tibor musiqiy eshituv qobilyati va uning o'ziga xos hususiyatlari, musiqiy qobilyatlar tizimidagi o'rni, namoyon bo'lishi shakllariga asosiy e'tibor qaratilgan. Muallif ishni yozishda ko'plab mavzuga oid musiqashunoslik, sanátshunoslik, pedagogika, psixologiyaga oid ilmiy manbalarni o'rgangan va o'z o'rnida musiqiy qobilyatni shaxs rivojlanishidagi o'ziga xos hususiyatlariga to'g'ri munosabat bildira olgan.

Ish uni bajarish bo'yicha “Nizom” talablariga mos ravishda rejalashtirilgan va har bir bob mazmuni mavzu maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalarga mos ravishda yozilgan va amaliy tajribalar va ularning natijalariga ko'ra asosli ravishda yoritib berilgan.

Musiqiy qobilyatlarni rivojlantirilgan pedagogik faoliyat ishning eng muhim ilmiylik kasb etuvchi jihatlari sifatida e'tiborga loyiq. Tavsiya etilgan ish usullari, shakl va vositalari ushbu yo'nalishda ishlayotgan musiqa

o'qituvchilari murabbiylari uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin .

Bitiruv ishida ayrim juziy kamchiliklar ko'zga tashlansada ular ishning qiymatiga jiddiy putur etkazmaydi. Uni mustaqil bajarilgan va tugallangan ilmiy izlanish sifatida himoyaga tavsiya etaman.

Dots :

Hamroqulov.